

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI FIZIKA-
TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI**

RAZZOKOV ALIJON SHONAZAROVICH

**$\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ QATTIQ
QORISHMALARINI SUYUQLANMA ERITMADAN OLISHNING FIZIK-
KIMYOVIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING STRUKTURAVIY
XOSSALARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)
on physical-mathematical sciences**

Razzokov Alijon Shonazarovich

$\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ qattiq qorishmalarini suyuqlanma eritmadan olishning fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning strukturaviy xossalari. 3

Раззоков Алижон Шоназарович

Физико-химические особенности получения твердых растворов $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ из раствора-расплава и их структурные свойства. 31

Razzokov Alijon Shonazarovich

Physical and chemical features of obtaining $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ solid solutions from melt solutions and their structural properties. 61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works. 67

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI FIZIKA-
TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI**

RAZZOKOV ALIJON SHONAZAROVICH

**$\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ QATTIQ
QORISHMALARINI SUYUQLANMA ERITMADAN OLIHNING FIZIK-
KIMYOVIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING STRUKTURAVIY
XOSSALARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/FM221 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universiteti va Fizika-texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://fti.uz/>) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Saidov Amin Safarbaevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Oksengendler Boris Leonidovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Nuriddinov Izzatillo

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Karajanov Smagul Jangabergenovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Fizika-texnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «24» yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent sh., Chingiz Aytmatov ko‘chasi, 2 b-uy, Tel./faks: (99871) 235-42-91, e-mail: info.fti@uzsci.net, Fizika-texnika instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Fizika-texnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100084, Toshkent sh., Chingiz Aytmatov ko‘chasi, 2 b-uy. Tel./faks: (+99871) 235-30-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi)

X.K. Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J.S. Axatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.d., katta ilmiy xodim

Sh.N. Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yarimo'tkazgichlar fizikasi va yangi yuqori sifatli, yupqa plyonkali materiallarni olish texnologiyalari sohasidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlarga alohida qiziqish bildirilmoqda. Bu talab yarimo'tkazgichli asboblarning sohasining asosi bo'lgan mikro va nanotexnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Shuning uchun elementar (Si, Ge) va kimyoviy birikma (GaAs, GaSb, CdTe, ZnSe, ZnS va boshqalar) asosidagi keng qo'llaniladigan yarimo'tkazgichli materiallardan tashqari, kimyoviy tarkibi boshqariladigan va oldindan belgilangan elektr va fotoelektrik xossalarga ega bo'lgan qattiq qorishmalar asosidagi murakkab strukturali yarimo'tkazgichlarni olish dolzarb masaladir.

Jahonda ko'plab ilmiy adabiyotlarda barqaror fizik xususiyatlarga ega yarimo'tkazgich materiallarni o'stirish texnologiyalariga va bunda sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni o'rganishga katta e'tibor beriladi. O'ziga xos elektrofizik va fotoelektrik xossalarga ega bo'lgan strukturaviy mukammal yupqa epitaksial qatlamlarni olish, hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etish alohida e'tiborga loyiqdir. Yarimo'tkazgich strukturalarni va asboblarni tayyorlashda nisbatan arzon yarimo'tkazgich material Si tagliklardan foydalanish iqtisodiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqdir. Ma'lum bir tarkibli, o'ziga xos fizik xususiyatli qattiq qorishmalarni o'stirishga talab katta bo'lib, bunda tagliklar va o'stirilgan qattiq qorishmalarining issiqlikdan kengayish koeffitsientlaridagi, kristall panjara parametrlaridagi farqlarni inobatga olib, ularni moslashtirish masalasini nazariy, texnologik jihatdan hal qilish dolzarb hisoblanadi. Muammoni hal qilish usullaridan biri qattiq qorishma o'sish yo'nalishi bo'yicha o'zgaruvchan kimyoviy tarkibga ega bo'lgan oraliq (bufer) epitaksial qatlamlaridan foydalanish bo'lib, bu tagliklar va o'stirilgan epitaksial qatlamlar o'rtasida strukturaviy o'tishni silliq amalga oshirishga imkon beradi. Kristall panjaralar o'rtasida paydo bo'ladigan kuchlanishlar, natijada hosil bo'lgan qattiq qorishmalarda strukturaviy nuqsonlar sonining kamayishiga olib keladi. Bu yarimo'tkazgichli asboblarni tayyorlash nuqtai nazaridan juda muhimdir.

Respublikamizda zamonaviy yarimo'tkazgichlar fizikasi sohasida kristall o'sishi uchun maqbul termodinamik va texnologik sharoitlarni aniqlash va olingan epitaksial qatlamlarning tuzilishini o'rganish muhim vazifalaridan hisoblanadi. Qattiq qorishmaning kimyoviy tarkibini nazorat qilish orqali yorug'lik spektrining turli chastotalariga mos fotosezgir yarimo'tkazgich asboblarni tayyorlash mumkin. Shu bois, fizik parametrlari yaxshilangan, nisbatan yuqori samaradorlikka ega ko'p qatlamli (kaskadli) fotosezgir optik strukturalarni tayyorlash zamonaviy yarimo'tkazgichlar fizikasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu ishda yangi qattiq qorishmalar va ular asosida $(\text{Si}-\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x - \text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y, \text{Si}-\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x - (\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z - \text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x - (\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ yagona texnologik siklda ko'p qatlamli konstruktsiyalarni olishning texnologiyasi va fizik tamoyillari keltiriladi. Ushbu texnologik jarayon ko'p qatlamli yarimo'tkazgich strukturalarni olishning oldingi ma'lum ko'p bosqichli usullardan farqli ravishda, iqtisodiy jihatdan tejamkordir. O'zbekistonda fotoelektrik xususiyatlarga ega optoelektronika

sohasida foydalanish mumkin bo'lgan yarimo'tkazgich strukturali asboblari tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'ziga xos elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab tarkibli qattiq qorishmalar asosidagi yuqori plyonkalar bo'lgan talab oshmoqda. Bugungi kunga kelib, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ va $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{GaAs})_x$ epitaksial qatlamli plyonkalar mos ravishda Si va Ge, GaAs tagliklarga suyuq fazadan o'stirib olingan. Biroq, Respublikada bu yo'nalishda sezilarli natijalarga erishilgan bo'lsada, bir qator hal etilmagan muammolar mavjud. Xususan, Si tagliklarga oraliq o'tish (bufer) qatlami yordamida, to'g'ri sohali o'tish epitaksial qatlamlarini o'stirish muammosi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-fevraldagi PQ-2772-son «2017-2021-yillarda elektrotexnika sanoatini boshqarishni yanada takomillashtirish, jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»¹, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»², 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son «Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»³ va 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»⁴ qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining III. «Energetika, energiya va resurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Pavia universiteti (Italiya) fizika fakultetida yarimo'tkazgichli qattiq qorishmalar va ular asosidagi tuzilmalarning o'sishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda; prof. D.Timo va uning hamkorlari metalloorganik bug'fazali epitaksiya (MOVPE) usulidan SiGeSn plyonkalarini o'stirish va o'rganish uchun foydalanadilar, ular arzon narxlardagi, yuqori samarali fotovoltaiq qurilmalarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Chung Yuan Kristian universitetida (Tayvan), elektron muhandislik bo'limida (prof. Ji-Vey Qi), Si (111) tagliklaridagi $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ epitaksial qatlamlari Ge-Sn eritmasi yordamida suyuq epitaksiya bilan olingan; taglik va plyonkaning panjara parametrlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish uchun qorishma eritmasida yuqori ($x=0.9$) germaniy miqdori ishlatilgan. Fan va texnologiya Institutining optoelektronik materiallar va qurilmalar markazida (Janubiy Koreya), GaAs bufer qatlami yordamida InAlAs epitaksial qatlamlari Si

¹ PQ-2772-son «2017–2021 yillarda elektrotexnika sanoatini boshqarishni yanada takomillashtirish, jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror (13.02.2017).

² PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror (17.02.2018).

³ PQ-3855-son «Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror (14.07.2018).

⁴ PQ-5032-sonli «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror (19.03.2021).

taglikka o‘stirildi; davom etuvchi dislokatsiya zichligi (TDD) $\sim 7 \cdot 10^6 \text{ sm}^{-2}$ ga teng bo‘ldi. Marburg universitetida (Germaniya) uzunligi 10 mkm gacha bo‘lgan GaP nanosimlari Si tagliklariga MOVPE usuli yordamida olingan, ammo ularda mikrojuftliklar ham sezilarli darajadadir. Sonora universiteti (Meksika) fizik tadqiqotlar bo‘limida suyuq fazali epitaksiya (Stranski-Krastanov o‘shish mexanizmi) yordamida $\text{Al}_{0.32}\text{Ga}_{0.68}\text{As}/\text{Al}_{0.29}\text{Ga}_{0.71}\text{As}/\text{GaAs}$ strukturalari to‘rtburchak shaklidagi 2,059 mkm o‘lchamli orolchalar ko‘rinishida o‘stirildi; bunday struktura taglik va plyonkaning panjara parametrlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni minimallashtirish imkonini berdi. Fraunhofer institutida (Germaniya) turli geometrik shakl va tarkibdagi p-AlGaAs namunalari metall-organik birikmalardan gaz fazali epitaksiya bilan o‘stirildi (alyuminiy konsentratsiyasi 0.08 dan 0.23 % gacha o‘zgarib boradi), asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning yashash davri bilan bog‘liq rekombinatsion nurlanish effektiv koeffitsienti o‘rganildi.

Hozirgi davrda ko‘pgina ilmiy markazlarda kremniy tagliklarga $\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$, $\text{A}^{\text{II}}\text{B}^{\text{VI}}$ tipdagi birikmalar asosidagi murakkab qattiq qorishmalar o‘stirish va ularning xossalari o‘rganish davom etmoqda. O‘ziga xos elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlariga ega bo‘lgan bunday strukturalarni olish optoelektronik qurilmalarni ishlab chiqarish sohasida dolzarb vazifadir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Har xil kristall tuzilishga ega yarimo‘tkazgich plyonkalarining epitaksial qatlamlarining o‘stirishi va xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $\text{Si}_{1-x}\text{Sn}_x$, $\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$, $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ qattiq qorishmalari asosida plyonkalar olish batafsil o‘rganilgan (Arkanzas universiteti (AQSh), Arizona davlat universiteti (AQSh), Fizika- texnika instituti, «Fizika-Quyosh» IIB (O‘zbekiston)). Monokristall plyonkalarining mukammallik darajasi dislokatsiyalar soniga bog‘liqligi (Leuven universiteti (Belgiya) va Xristian universiteti (Chung Yuan, Xitoy), Silyan universiteti (Sian, Xitoy)), shuningdek dislokatsiyalar zichligining plyonkalar elektr xossalari ta'siri o‘rganilgan (MakGill universiteti (Monreal, Kanada)). Ko‘p ishlar plyonka o‘shish xususiyatlariga taglik monokristallarining kristallografik yo‘nalishlarining ta'siriga bag‘ishlangan (Kyushu universiteti (Yaponiya), Sidzuoka universitetining elektronika tadqiqot instituti (Yaponiya)). Professor A.S.Saidovning (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti) kristall panjarada atomlarning molekulyar (juftlik) o‘rin almashish turlariga ega bo‘lgan yangi murakkab qattiq qorishmalar olish jarayonlarini o‘rganishdagi alohida hissasini qayd etish lozim.

Biroq, ilmiy adabiyotlarda hozirgacha suyuq eritmalardan plyonkalarni o‘stirish jarayonlarini termodinamik tavsiflash yoritilmagan, eritmaning turini yoki uning kimyoviy tarkibini tanlash uchun aniq mezonlar yo‘q. O‘shish yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgaruvchan kimyoviy tarkibli va o‘zgarmas turdagi kristall panjarali epitaksial plyonkalarining o‘shishi ham etarli darajada o‘rganilmagan. Bundan tashqari $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Sn}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ qattiq qorishmalarining yupqa epitaksial plyonkalari hozirgacha olinmagan. Shuning uchun ushbu ishda ko‘rib chiqilayotgan muammolar dolzarbdir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari" bandi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Fizika-texnika institutining «Фото-, теплоэлектрические и излучательные эффекты в новых многокомпонентных твердых растворах с нанокристаллами на основе молекул элементарных полупроводников и полупроводниковых соединений» mavzusidagi № ФА-Ф2-003 sonli fundamental ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: $Si_{1-x-y}Ge_xSn_y$, $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$, $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$, monokristall qattiq qorishmalarining mavjudligini nazariy va eksperimental asoslash, epitaksial plyonkalarining o'sish mexanizmlarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini tushuntirish, ularning tuzilishini va fotoelektrik xossalarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

- $Si_{1-x-y}Ge_xSn_y$, $(Si_{1-x}Ge_x)_{1-z}(Al_{1-y}Ga_yAs)_z$, $(Sn_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$, $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$, $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$ qattiq qorishmalarining mavjud bo'lish imkoniyatini ko'p elektronli atomlarning potentsiallarini hisoblash modeli yordamida ilmiy bashorat qilish;
- eritma sistemasining Gibbs energiyasini nazariy hisoblash yo'li bilan qalayli eritmada Si, Ge, $Si_{1-x}Ge_x$, $Ge_{1-x}Sn_x$ epitaksial qatlamlarning o'sishi uchun maqbul termodinamik sharoitlarni aniqlash;
- eritmada nanoklasterlarning o'lchamlarini hamda kristallanishning boshlang'ich haroratiga bog'liq ravishda ularning epitaksial qatlamlarda dislokatsiyalar hosil bo'lishiga ta'sirini nazariy va eksperimental yo'l bilan aniqlash;
- kvant kimyoviy hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan Si_n , Ge_n , Si_nGe_m , Ga_nP_n molekulyar klasterlarining $Si_{1-x}Ge_x$, $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ qattiq qorishmalarni o'sish jarayonidagi ro'lini, shuningdek ularning qattiq qorishmalarining kristall tuzilishiga ta'sirini aniqlash;
- Si epitaksial plyonkalarining va varizon $Si_{1-x}Ge_x$ strukturalarning o'sishiga gorizontal joylashgan kremniy tagliklar orasidagi cheklangan masofaning ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish;
- cheklangan hajmdagi qalayli eritmada Si va GaAs tagliklarga $Si_{1-x-y}Ge_xSn_y$, $(Sn_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$, $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$, $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$ qattiq qorishmalarni o'stirishning texnologik shart-sharoitlarini aniqlash;
- ion bombardimoni modellashtirishi yordamida Si, Ge, GaAs, GaP tagliklarning nishon parametrlarini aniqlash va yuza potentsialini baholash, hamda ularga kristall strukturaviy mukammal epitaksial qatlamlar o'stirishni nazariy jihatdan ilmiy bashorat qilish.

Tadqiqotning obyekti - cheklangan hajmli qalayli eritmalar Si, Ge va $Si_{1-x-y}Ge_xSn_y$, $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$, $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ qattiq qorishmalar shakllanish jarayonlari, epitaksial qatlamlarning kimyoviy tarkibga bog'liq ravishda kristall strukturalarining o'zgarishi.

Tadqiqotning predmeti. Epitaksial qatlamlar va geterostrukturalarning kristall mukammalligiga termodinamik omillar ta'sirining fizik qonuniyatlari, har xil

haroratlarda Sn-Si, Sn-Ge, Sn-Si-Ge eritmalarning fizik-kimyoviy va cheklangan hajmdagi eritmadan plyonka o'sishining kinetik xususiyatlari.

Tadqiqotning usullari. Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi usullardan foydalanildi: elektron skanerlash, elektron transmissiya va atom kuch mikroskopiyasi; rentgen nurlari diffraksiyasi; metallografik usul, spektral fotosezgirlikni aniqlash; Holl usuli; kvant kimyoviy hisoblashlar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'p elektronli atomlarning statistik umumlashgan momentining qiymatlari nazariy jihatdan hisoblab chiqildi va qattiq qorishmalarni hosil qiluvchi kimyoviy birikmalarning eng ehtimoliy element juftliklari aniqlangan;

Si tagliklarga $Si_{1-x-y}Ge_xSn_y$, $(Si_{1-x}Ge_x)_{1-z}(Al_{1-y}Ga_yAs)_z$, va GaAs tagliklarga $(Sn_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$, $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$ $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qorishmalar epitaksial qatlamlarini o'stirishning shart-sharoitlari hamda ular asosidagi geterostrukturalarning fotoelektrik xossalari aniqlangan;

eritma tizimining Gibbs energiyasini hisoblash yordamida mukammal kristall strukturali Si (1173 K), Ge (923 K), $Si_{1-x}Ge_x$ (1135 K), $Ge_{1-x}Sn_x$ (800 K) epitaksial qatlamlarini Si, Ge tagliklarga qalayli eritmadan o'stirish jarayonining termodinamik sharoitlari ko'rsatilgan;

Si_n , Ge_n , Si_nGe_m , Ga_nP_n nanoklasterlari hosil bo'lishining kvant kimyoviy hisoblash natijalari va ularning $Si_{1-x}Ge_x$, $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ qattiq qorishmalar o'sishida ishtirok etib, qorishma kristall tuzilishiga ta'siri etishi ko'rsatilgan;

Si kristall panjarasida Ge atomlarining katta ehtimollik bilan Ge, Ge_2 , Ge_5 ko'rinishida, Ge kristall panjarasida Si atomlarining katta ehtimollik bilan Si, Si_5 ko'rinishida, GaP kristall panjarasida Si_2 ko'rinishida joylashishi aniqlangan;

taglik-plyonka chegarasida dislokatsiyalar hosil bo'lish mexanizmi keltirilgan; tizim komponentlari nanoklasterlari o'lchamlarining haroratga bog'liqligi nazariy va eksperimental jihatdan asoslangan; yuqori harorat va shunga mos ravishda eritmada katta hajmli nanoklasterlarning mavjud bo'lishi, hosil bo'layotgan kristalldagi dislokatsiya zichligining oshishiga olib kelishi isbotlangan (Si uchun 1323 K da $b = 5,47$ nm va 1073 K da $b = 3,46$ nm; Ge uchun 1173 K da $b = 6,7$ nm va 800 K da $b = 1$ nm);

Si- $Si_{1-x}Ge_x$ -GaAs plyonkalarini suyuq fazadan o'stirish jarayonida hosil bo'ladigan dislokatsiya zichligi kristallanish haroratining boshlang'ich qiymatiga bog'liqligi nazariy va eksperimental tarzda aniqlangan; boshlang'ich kristallanish haroratining 1073 K dan 1323 K gacha o'sishida taglik-plyonka chegarasidagi dislokatsiyalar zichligi $9.6 \cdot 10^4$ cm^{-2} dan $8.2 \cdot 10^5$ cm^{-2} gacha ortishi ko'rsatilgan va dislokatsiyalar zichligining plyonka qalinligiga eksponensial bog'liqligi analitik isbotlangan;

mukammal tuzilishli epitaksial qatlamlarni olish uchun tagliklar orasidagi masofani kritik qiymatidan oshirmaslik yoki suyuq eritmaning sovutish tezligini kamaytirish kerakligi isbotlangan;

ilk bor yagona texnologik jarayonda bufer qatlami yordamida Si- $Si_{1-x}Ge_x$ - $Si_{1-x-y}Ge_xSn_y$, Si - $Si_{1-x}Ge_x$ - $(Si_{1-x}Ge_x)_{1-z}(Al_{1-y}Ga_yAs)_z$ - $Si_{1-x}Ge_x$ - $(Si_{1-x}Ge_x)_{1-z}(Al_{1-y}Ga_yAs)_z$, Si- $Si_{1-x}Ge_x$ -GaAs strukturalar Si taglikka o'stirilgan. Funktsional strukturalarning yuqori mukammalligi plyonkalarining

kimyoviy tarkibining ularning o'sish yo'nalishi bo'yicha silliq o'zgarishi tufayli taglik-plyonka panjara parametrlaridagi farq kamayib borishi orqali ta'minlanishi aniqlangan;

suyuq fazadan qattiq qorishma o'stirishda, ion bombardimoni modellashtirish usuli bilan Si, Ge, GaAs, GaP tagliklari uchun nishon parametrlari qiymatlari aniqlanib, kristall-mukammal epitaksial qatlamlarni o'stirish imkoniyati nazariy hisoblashlar asosida ibotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

IQ spektroskopiyasi asbobsozligida istiqbolli yarim o'tkazgich material hisoblangan $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, epitaksial plyonkalar Si(111) tagliklarida o'stirilgan;

optoelektronika sohasida foydalanish mumkin bo'lgan $\text{Al}_{0,08}\text{Ga}_{0,06}\text{As}_{0,14}$ tarkibli sirt qatlamiga ega bo'lgan $\text{Si-Si}_{1-x}\text{Ge}_x-(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z-\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x-(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ strukturalar yagona texnologik jarayonda Si tagliklariga $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ epitaksial bufer qatlami yordamida olingan;

quyosh fotoelementlari va fotosezgirlikga ega yarimo'tkazgich asboblarni tayyorlashda qo'llaniladigan yangi $n\text{GaAs-p}(\text{Sn}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $n\text{GaAs-p}(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ geterostrukturalar GaAs(100) tagliklarda olishga erishilgan;

fotosezgirliги uzun to'lqinli spektr hududiga siljigan fotodetektorlar ishlab chiqish imkonini beradigan $n\text{GaAs-p}(\text{Ge}_2)_{0,02}(\text{ZnSe})_{0,03}(\text{GaAs})_{0,95}$ struktura olingan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari, standart texnologik qurilmalar va yuqori aniqlikdagi uskunalari, o'stirilgan namunalarning elektrofizik va fotoelektrik parametrlarini o'lchash uchun standart asboblar, tajribalarning zarur statistikasi, olingan natijalarni boshqa mualliflarning natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish, mavjud tasdiqlangan fizik modellar doirasida olingan natijalarni talqin etish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ko'p elektronli atomlar potentsiallaridan foydalangan holda qattiq qorishmalar hosil bo'lish mezonlari va qalayli eritmadan kam zichlikli nuqsonlarga ega kristall strukturali Si, Ge, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$ epitaksial qatlamlarini eritma tizimidagi nanoklasterlar o'lchamlarini inobatga olib, nisbatan past haroratlarda o'stirishning qulay shart-sharoitlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, nisbatan arzon Si taglik asosida olingan Si- $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ - $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$ ($0 \leq x \leq 0,93$, $0 \leq y \leq 0,03$), Si - $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ - $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ - $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ - $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ ($0 \leq x \leq 0,72$, $0 \leq y \leq 0,14$, $0 \leq z \leq 0,28$) geterostrukturalardan kaskadli quyosh elementlari va IQ fotodetektorlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi, shuningdek, yagona texnologik jarayonda Si taglikka $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ bufer qatlami bilan $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ epitaksial plyonkalar o'stirish orqali ko'p qatlamli kaskad strukturalarni tayyorlashni soddalashtirilganligi bilan izohlanadi. Plyonkalarining man qilingan soha kengligini kimyoviy tarkibga bog'liq ravishda o'zgartirish yordamida spektrning keng sohasini qamrovchi fotosezgir $n\text{GaAs-p}(\text{Sn}_2)_{0,01}(\text{GaAs})_{0,97}(\text{ZnSe})_{0,02}$, $n\text{GaAs-p}(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ ($0,03 \leq x \leq 0,05$), $n\text{GaAs-p}(\text{Ge}_2)_{0,02}(\text{ZnSe})_{0,03}(\text{GaAs})_{0,95}$, $\text{GaAs-Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$ ($x \leq 0,03$) geterostrukturalarni olish ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ qattiq qorishmalarini suyuqlanma eritmadan olishning fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning strukturaviy xossalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“(GaAs) $_{1-x-y}$ (Ge $_2$) $_x$ (ZnSe) $_y$ qattiq qorishmasining epitaksial qatlamlarini olish usuli” patenti (Patent. №IAP 02652, 29.04.2005) olingan;

Chop qilingan ilmiy ishlar ro'yxatidagi 2 ta maqolaga 7 ta xorijiy maqolada mualliflar tomonidan iqtiboslar keltirilgan. Jumladan, A.S.Saidov, A.Sh.Razzakov, V.A.Risaeva, E.A.Koschanov. Liquid-phase epitaxy of solid solutions $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ //Materials chemistry and physics. – 2001. – Vol. 68. – P. 1-6.(Scopus IF: 2.072) maqolaga 3 ta iqtibos (Surface Engineering and Applied Electrochemistry, 59(5), 670-673, 2023. IF:1.6; Herald of the Bauman Moscow State Technical University, Series Natural Sciences, (4), 58-72, 2020. IF: 1.1; Journal of Analytical Atomic Spectrometry, 16(10), 1217-1237, 2001. IF: 6.4); va A.S.Saidov, A.Sh.Razzakov, E.A.Koshchanov. Liquid phase epitaxy of $\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$ semiconductor films //Technical Physics Letters. – 2001. – Vol. 27. – P. 698-700.(Scopus IF:1.7) maqolaga 4 ta iqtibos (Optical Materials Express, 3(9), 1385-1396, 2013. IF: 5.9; Journal of Applied Physics, 109(10), 103115, 2011, IF: 5.1; Handbook of Crystal Growth: Thin Films and Epitaxy: Second Edition 3, 225-316, 2015 (Texas universitetining kutubxonasi katalogida, QD 921 H32 2015). Liquid Phase Epitaxy of Electronic, Optical and Optoelectronic Materials, 109-178, 2007 (AQSh Kongress kutubxonasi, TK7871 .L57 2007) keltirilgan;

Eritma tizimining Gibbs energiyasini nazariy hisoblash natijalari, epitaksial qatlamlar o'sishining tavsiya etilgan mexanizmi, yuqori tagliklarda o'stirilgan plyonkalar qalinligining kattaroq bo'lish sabablarining Reyleigh-Teylor noturg'unligi hodisasi yordamida tushuntirilishlari №DP0121U113046 “Turli morfologiyadagi nanozarrachalar va ular asosidagi kompozitlarning kimyoviy, issiqlik va plazma xossalarini o'rganish” fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (“Zaporojye politexnika” Milliy universitetining 2023 yil 06 iyundagi (Ukraina) № 67/01/1586- sonli ma'lumotnomasi));

Eritmada kristallar hosil bo'lishida ishtirok etuvchi nanozarrachalarning eksperimental aniqlangan o'lchami va kristallanish jarayoni uchun keltirilgan nanozarrachalar hosil bo'lishi mexanizmi, shuningdek, ular radiuslarining (zarrachalarning kritik radiusi) haroratga bog'liqligi “Urganchkormmash” AJ da ishlab chiqarishdagi, eritmada kristall yadrolarning nano o'lchamdagi kristallar hosil bo'lishiga olib keladigan fizik hodisalarini tushuntirishda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 18 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 74 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 31 ta maqola, jumladan 25 tasi xorijiy xalqaro jurnallarda nashr etilgan. Ixtiro uchun 1 ta patent mavjud.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 194 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha qisqacha ma'lumotlar keltirilib, tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha nashrlar soni, ishning tuzilishi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Birinchi bobda $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{GaAs})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{InP})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{ZnS})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{InP})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{CdTe})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnS})_x$, $\text{Zn}_{1-x}\text{Cd}_x\text{Se}$, $\text{Zn}_{1-x}\text{Cd}_x\text{Te}$, $\text{Cd}_x\text{Zn}_{1-x}\text{Te}$, $\text{GaAs}_y\text{P}_{1-y}$ va boshqa shu kabi murakkab yarimo'tkazgichli qattiq qorishmalarni hosil qilishning nazariy va eksperimental imkoniyatlari tahlil qilindi.

Suyuq fazadan oddiy va murakkab yarimo'tkazgichli qattiq eritmalarini olish uchun termodinamik shart-sharoitlari ifodalangan. Epitaksial qatlamlarda va GaP/Si, ZnSe/GaAs, GaAs/ZnSe Si/SiGe/Ge/GaAs, GaAs/SiGe/Si, GaAs/AlAs, InGaAs/GaAs tipidagi taglik-plyonka chegaralarida kristall panjara parametrlari va termik kengayish koeffitsenti (TKK) qiymatlari farqi tufayli dislokatsiyalarning paydo bo'lish jarayonlari tahlil qilindi. Oraliq o'zgaruvchan tarkibga ega bufer qatlami yordamida geterostrukturalarni olish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Monkristallar va qattiq qorishmalar olishning texnologik asoslari, ularning fizik-kimyoviy tavsiflari va epitaksial qatlamlarning hosil bo'lish mexanizmlari yoritilgan. Ko'p qatlamli epitaksial qatlamlarni turli usullar bilan olish xususiyatlari tafsivflandi.

Ishda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar shakllantirildi.

Ikkinchi bobda eksperimental tadqiqot usullari keltirilgan. Si, Ge, GaAs, GaP monokristallar tagliklarida vodorod muhitida dasturiy majburiy sovutish orqali, cheklangan qalayli va galliyli eritmalaridan o'stirilgan namunalarni tanlash asoslari keltirilgan.

Plyokalar va heterostrukturalarni o'stirish uchun ishlatiladigan EPOS tipidagi tagliklar gorizontall joylashadigan vertikal turdagi kvarts reaktor tasvirlandi.

O'stirilgan qattiq qorishmalarining kristallografik xarakteristikalarini yuqori aniqlikdagi rentgen nurlari diffraksiyasi bilan o'rganildi. $\text{Sn}_{86,5}\text{Ge}_{12}\text{Si}_{1,5}$ suyuq eritma tarkibidagi klasterlarining o'lchamlari rentgen nurlari difraksiyasi usuli bilan yuqori haroratli difraktometr yordamida 1173 va 1323 K haroratlarda o'rganildi.

Namunalarning ko'ndalang kesimi va sirlari kislotali tozalangan va tozalanmagan holatlarda elektron skanerlash mikroskopi yordamida o'rganildi. Ikkilamchi va qaytgan elektronlar plyonka yuzasi va strukturalarning geterochegaralari tasvirlarini shakllantirdi.

Olingan plyonkalarining kesim morfologiyasi transmissiya elektron mikroskopi yordamida tekshirildi.

O'stirilgan epitaksial qatlamlar sirtining strukturaviy xususiyatlari sifatli metallografik tahlil orqali o'rganildi.

Namunalarda elektrofizik o'lchashlar HMS-5500 qurilmasi yordamida amalga oshirildi. Namunalarning BAX xarakteristikalarini Φ 116/1 tipidagi mikrovolt-mikroampermetr bilan o'lchandi. Namunalarning spektral xarakteristikalarini ZMR-3 monoxromatorida qayd etilgan. Kristall o'sishi jarayonida epitaksial qatlamlarning shakllanishi ATR-FTIR spektroskopiyasi yordamida tahlil qilindi.

“Si, Ge tagliklarda suyuq fazadan Si, Ge, Si_{1-x}Ge_x, Ge_{1-x}Sn_x, Si_{1-x-y}Ge_xSn_y epitaksial qatlamlarini o'stirishning nazariy asoslari va maqbul fizik-kimyoviy sharoitlari” deb nomlangan uchinchi bobida elementlar davriy sistemasining turli element atomlari uchun ko'p elektronli atomlarning potentsiali modelidan foydalangan holda qattiq qorishmalar hosil bo'lish imkoniyatining nazariy hisoblari keltirilgan. Bu tadqiqotning eksperimental bosqichidan oldin istiqbolli ikki, uch yoki undan ortiq elementli yarimo'tkazgichli qattiq qorishmalar ning shakllanishini bashorat qilish imkonini beradi va materiallarni tejashga, sarflanadigan vaqtni qisqartirishga yordam beradi.

Tomas-Fermi formulasidan (1) foydalanib, ba'zi qattiq qorishmalar komponentlarining ko'p elektronli atomlarining potentsiallari (statistik umumlashtirilgan moment) aniqlandi:

$$m^* = \frac{eZ}{r} \cdot \Phi \left(\frac{rZ^{\frac{1}{3}}}{0.8853 \cdot \frac{\hbar^2}{\mu e^2}} \right) \quad (1)$$

bu yerda e , μ -elektronning zaryadi va massasi, Z va r mos ravishda atomning tartib raqami va radiusi, \hbar -Plank doimiysi.

Olingan natijalarga asoslanib, suyuq fazali epitaksiya usulida olingan Si_{1-x-y}Ge_xSn_y, Si_{1-x}Ge_x, Ge_{1-x}Sn_x, (Ge₂)_{1-x}(GaAs)_x, (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x, (Ge₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y, (Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y, (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x, (Si₂)_{1-x}(GaP)_x kabi ko'p elementli yarimo'tkazgich materiallarning yangi yuqori xarakteristikali elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlarga ega bo'lishini ilmiy bashorat qilish mumkin, bu esa kelajakda ularni yarimo'tkazgichli asboblarni tayyorlashda qo'llash imkonini beradi.

Si-Sn eritmasidan epitaksial qatlamlarning kristall-suyuqlik chegarasida o'sish jarayonida tizimning izobarik-izotermik potentsiali ortadi ($\Delta G_{cr} > 0$) va sirt yuzasi kattaligi va energiyasi σ ga bog'liq ravishda uning erkin energiyasi oshadi. Shuning uchun monokristallarni bu tarzda o'stirishda muhim omillar erituvchining kimyoviy tarkibi va ma'lum bir yo'nalishga ega bo'lgan taglik materialini hisoblanadi. $\Delta G_{cr} > 0$, bo'lishiga qaramay, epitaksial Si qatlamlari diffuziya-kinetik yoki aralashish deb ataladigan sharoitda sirt energiyasi tufayli taglikka o'sadi. Ta'kidlash mumkinki, erituvchida kritik o'lchamdagi nanoklasterlar mavjud bo'lganda ($\Delta G_{cr} < 0$) da taglik yuzasida kritikdan kattaroq radiusli yangi ikki o'lchovli kristallanish markazlari shakllana boshlaydi. Bu holat energetik jihatdan taglik yuzasida epitaksial qatlamlarning o'sishi uchun afzalroqdir.

Real eritmalar uchun Gibbs energiyasi quyidagicha yoziladi:

$$\Delta G_{mix} = RT(X_1 \ln a_1 + X_2 \ln a_2) \quad (2)$$

bu erda a_1 , a_2 – faollik kattaliklari.

Kremniy komponentining faollik koeffitsientini hisoblash uchun quyidagi ifoda qo'llaniladi:

$$\lg \gamma_{Si} = \frac{a' - b'T_{(s)(Si)}}{RT_{(s)(Si)}} (1 - X_{Sn})^2 \quad (3)$$

bu erda $a' = 31162$ va $b' = 4,0289$ Si–Sn tizimi uchun konstantalar; $T_{(s)(Si)}$ – Si ning solidus harorati.

Eritma sovutilganda Si nanoklasterlari taglikga joylashishi boshlanadi. Bu jarayonni kristallanishning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Suyuq qalay muhitida nanokristallarning hosil bo'lishining Gibbs energiyasi (ΔG_{cr}) quyidagi formulalar yordamida hisoblandi:

$$r_c = \frac{2\sigma_{s-l}V_m}{\mu_1 - \mu_2} = \frac{2\sigma_{s-l} \cdot V_m \cdot T_l}{L \cdot \Delta T} \quad (4)$$

$$\mu_1 - \mu_2 = \Delta G_v = L \frac{\Delta T}{T_l} \quad (5)$$

$$\Delta G_{cr} = \frac{16\pi\sigma_{s-l}^3 V_m^2}{3(\Delta G_v)^2} \quad (6)$$

bu yerda, μ_1 va μ_2 – suyuq va qattiq Si ning kimyoviy potentsiallari, ΔG_v – hajmiy Gibbs energiyasi, V_m – Si ning molyar hajmi, L – Si ning erish issiqligi, σ_{s-l} – Si ning qattiq-suyuqlik chegarasidagi sirt tarangligi., T_l – Si ning erish harorati, ΔT – eritmaning qayta sovutish harorati.

Tizimda hosil bo'lgan Si nanoklasterlari Si taglik yuzasiga o'tirib, makro o'lchamli monokristalni hosil qilib, har bir harorat uchun tizimning umumiy Gibbs energiyasi (7) formula yordamida hisoblandi:


$$\Delta G_{system} = \Delta G_{cr} + \Delta G_{mix.then} - \Delta G_{mix.first} \quad (7)$$

bu yerda ΔG_{system} – Si–Sn tizimining umumiy Gibbs energiyasi, ΔG_{cr} – Si nanokristallarini hosil bo'lish Gibbs energiyasi, $\Delta G_{mix.then}$, $\Delta G_{mix.first}$ – tizimining mos ravishda yakuniy va dastlabki aralashish Gibbs energiyalari. Hisoblash natijalari 1-rasmda keltirilgan.

ΔG_{mix} egri chizig'i 1173 K da minimumga ega. Bu shuni ko'rsatadiki, kristallanish harorati 1123 K dan 1173 K gacha oraliqda bo'lganda Si kristallarining hosil bo'lish ehtimoli kamayadi. Minimum nuqtada Si ning qalay eritmasida eruvchanligi oshadi va kristallanish tezligi sekinlashadi, bu esa o'sayotgan qatlarning mukammal strukturali bo'lishiga olib keladi.

Nazariy hisoblashlarga asoslanib, diametri 20 mm va qalinligi ~400 mkm bo'lgan Si tagliklarga 1323÷1073 K harorat oralig'ida dislokatsiya zichligi $5 \cdot 10^4 \div 9 \cdot 10^3 \text{ sm}^{-2}$ bo'lgan yuqori sifatli epitaksial qatlamlari o'stirildi.

Jarayonning maqbul ekanligini tushuntirishlar Si nanoklasterlarining o'sayotgan Si taglik yuzasidagi zarrachalar va eritmadagi Sn zarrachalari bilan o'zaro ta'sirini o'rganish natijasiga asoslangan. Zarrachalar orasidagi masofani



1-rasm. Si kristallarining shakllanishida Gibbs energiyasining haroratga bog'liqligi.

bilgan holda, o‘zaro ta’sir kuchlari, quyidagi ko‘rinishdagi Lennard-Jons potentsiali formulasidan foydalanib, baholandi:

$$U_{L-J} = \frac{A}{r_{AB}^{12}} - \frac{B}{r_{AB}^6} \quad (8)$$

bu yerda A va B konstantalar; r – zarrachalar orasidagi ta’sirlashish masofasi.

Ekspirimental tanlangan kristallanish harorati uchun Si nanoklasterlarining eritma zarrachalari va o‘sib borayotgan Si yuzasi bilan o‘zaro ta’sirlari Lennard-Jons potentsiallari orqali hisoblab chiqildi (1-jadval). Shunday qilib, nazariy va eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Si-Sn eritmasidan Si plyonkasini o‘stirish uchun qulay harorat 1173 K ga teng.

Mukammal Ge epitaksial qatlamlarini o‘shining maqbul sharoitini aniqlash uchun termodinamik yondashuv amalga oshirildi. Yuqorida tavsiflangan usuldan foydalanib, energiyani tejaydigan plyonka o‘stirish sharoitlari aniqlandi. Eritmada Sn va Ge komponentlarining faolligini aniqlash uchun Klauzius-Klapeyron va Gibbs-Dyuhem tenglamalaridan foydalanildi.

1-jadval

Kremniy taglik yuzasi va kremniy nanoklasterlari orasidagi Lennard-Jons potentsialining haroratga bog‘liqligi.

T_{kr}	Nanoklaster radiusi	$B \cdot 10^{-74}$	$A \cdot 10^{-127}$	$U_{L-J} \cdot 10^{-20} \text{ J}$ ($S_{inano} - S_{iyuza}$)
1323 K	2.60 nm	3.7517	5.6185	-9.01857
1273 K	2.33 nm	2.700	3.155	-6.70132
1223 K	2.10 nm	1.9769	1.6459	-5.57980
1173 K	1.90 nm	1.4638	0.769	-5.36382
1123 K	1.77 nm	1.1836	0.5677	-4.13300
1073 K	1.65 nm	0.959	0.3986	-3.34544
1023 K	1.54 nm	0.779	0.2758	-2.75000

$$\ln \left(\frac{1}{\gamma_{Ge} X_{Ge}} \right) = \frac{\Delta H_f}{R} \left(\frac{1}{T_c} - \frac{1}{T_l} \right) \quad (9)$$

$$\ln \gamma_{Sn} = - \frac{X_{Ge}}{X_{Sn}} (\ln \gamma_{Ge} - 1) \quad (10)$$

bu yerda X - tizimdagi komponentning konsentratsiyasi (mol ulushi), γ - faollik koeffitsienti, T_c - kristall hosil bo‘lish harorati, T_l - likvidus harorati, ΔH_f - erish issiqligi, R - universal gaz doimiysi.

Har xil haroratlarda faollik koeffitsientlarining qiymatlari hisoblab chiqildi. Ushbu natijalarga asoslanib, komponentlarning aralashish Gibbs energiyasining haroratga bog‘liqligi aniqlandi (2-rasm). 1000-1023 K harorat oralig‘ida ΔG_{mix} egri chiziq minimal qiymatga ega, bu tizimdagi komponentlarni erishining eng intensiv jarayoniga mosdir. 800 K dan past haroratlarda Ge monokristallarining eritmadan o‘shishi jarayonida $Ge_{1-x}Sn_x$ epitaksial qatlamli qattiq qorishma hosil bo‘lishi ko‘rsatildi.

$\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ qattiq qorishmani o‘stirishda aniqroq termodinamik natijalarga erishish uchun komponentlarning faollik qiymatlari hisoblab chiqildi va Si, Ge, Sn komponentlari faollik koeffitsientlarining haroratga bog‘liqlik qiymatlari aniqlandi.

$$RT \ln \gamma_{\text{Sn}} = \alpha_{\text{Si-Sn}} X_{\text{Si}}^2 + \alpha_{\text{Ge-Sn}} X_{\text{Ge}}^2 + (\alpha_{\text{Si-Sn}} + \alpha_{\text{Ge-Sn}} - \alpha_{\text{Si-Ge}}) X_{\text{Si}} X_{\text{Ge}} \quad (11)$$

$$RT \ln \gamma_{\text{Si}} = \alpha_{\text{Si-Sn}} X_{\text{Sn}}^2 + \alpha_{\text{Si-Ge}} X_{\text{Ge}}^2 + (\alpha_{\text{Si-Sn}} + \alpha_{\text{Si-Ge}} - \alpha_{\text{Ge-Sn}}) X_{\text{Ge}} X_{\text{Sn}} \quad (12)$$

$$RT \ln \gamma_{\text{Ge}} = \alpha_{\text{Ge-Sn}} X_{\text{Sn}}^2 + \alpha_{\text{Si-Sn}} X_{\text{Si}}^2 + (\alpha_{\text{Ge-Sn}} + \alpha_{\text{Si-Ge}} - \alpha_{\text{Si-Sn}}) X_{\text{Si}} X_{\text{Sn}} \quad (13)$$

bu yerda X - tizimdagi komponentning konsentratsiyasi (mol ulushi), T - harorat, R - universal gaz doimiysi, $\alpha_{\text{Si-Sn}} = 6410$, $\alpha_{\text{Si-Ge}} = 1615$, $\alpha_{\text{Sn-Ge}} = 735$ (Si va Sn, Si va Ge, Sn va Ge komponentlari orasidagi o‘zaro ta‘sir parametrlari).


Keyinchalik (6) formuladan foydalanib, kristallanish jarayonining o‘z-

o‘zidan boshlanishiga to‘sqinlik qiluvchi Gibbs energiyasining qiymati aniqlandi. 1173-1183 K harorat oralig‘ida tizimning Gibbs energiyasi minimal qiymatga ega bo‘ldi, bu tajribada tasdiqlandi: kristallanishning bunday boshlang‘ich haroratida o‘stirilgan $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ qattiq qorishmasining epitaksial qatlamlari dislokatsiya zichligi kam bo‘lgan (taglik-plyonka chegarasida $3 \cdot 10^4 \text{ sm}^{-2}$ va plyonka yuzasida $8 \cdot 10^3 \text{ sm}^{-2}$) nisbatan mukammal tuzilishga egadir.

Eritmadan kristallanish jarayonida kristall strukturasiidagi nuqsonlarning, xususan dislokatsiyalarning paydo bo‘lishi kristall hosil qiluvchi zarrachalarning o‘lchami bilan bog‘liq. Shuning uchun kristallanish jarayonini ko‘rib chiqishda tizimda hosil bo‘lgan zarrachalarning o‘lchamlarini ham hisobga olish kerak (3-rasm).

1133-1135 K haroratda Si va Ge klasterlarining o‘lchamlari deyarli bir xil qiymatlarga ega bo‘lganligi sababli, ushbu harorat oralig‘ida nisbatan kam sonli strukturaviy nuqsonlar bilan $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ monokristallarini o‘stirish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin, chunki. kristall hosil bo‘lish jarayonida bir xil o‘lchamdagi klasterlarning ishtirok etishi dislokatsiyaning paydo bo‘lish ehtimolligini keskin pasaytiradi.

Yuqoridagi nazariy fikrlardan foydalanib, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ qattiq qorishmasi epitaksial qatlamlari Si tagliklariga o‘stirildi.



2-rasm. Ge-Sn tizimida aralashish Gibbs energiyasining haroratga bog‘liqligi

Murakkab varizon yarimo'tkazgich qattiq qorishmalarining kimyoviy tarkibi ularning o'sish yo'nalishi bo'yicha o'zgaradi, bu esa plyonkalarining man qilingan sohasi kengligining tekis o'zgartirishga imkon beradi.


Qattiq eritmaning ko'pgina fizik xususiyatlari kristalldagi atomlarning bog'lanish energiyasiga bog'liq. Bu

yarimo'tkazgichlarning tuzilishini bir necha tadqiqot usullarida o'rganishga turtki bo'ldi. Shuning uchun Si, Ge, SiGe, GaP va SiGaP nanoklasterlarining kvant kimyoviy hisoblari yarim empirik PM3 usuli yordamida amalga oshirildi, turli haroratlar uchun ularning umumiy energiyasi, Gibbs energiyasi va entropiyasi aniqlandi.

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, solvat shaklidagi Sn zarrachalari eritmadagi Si va Ge nanoklasterlarini qoplaydi va ularning metastabil holatini ta'minlaydi. Nanoklasterlarning Si, Ge yoki Si-Ge dan iborat bo'lish ehtimolini aniqlash uchun kvant kimyoviy hisob-kitoblari amalga oshirildi. Turli haroratlarda Si-Ge-Sn eritmasida Si-Ge nanoklasterlarini hosil bo'lish ehtimoli ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Nanoklasterlarning barqarorligi Si nanoklasterlarining entropiya qiymatlari asosida baholandi. Yuqori haroratlarda Si₁₄, Si₁₅, Si₂₄, nanoklasterlarining entropiya qiymatlari salmoqli bo'lib chiqdi, Si₃₃...Si₃₅ nanoklasterlarniki esa kamaydi. Turli haroratlarda Si₃₅ nanoklasteridagi entropiya qiymatlarining keskin pasayishi uning ichki tuzilishining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Si₃₄ dan boshlab Si nanoklasterlarining umumiy energiyasining qiymatlari musbat ekanligi aniqlandi (4-rasm), bu aniq kichik va katta nanoklasterlar orasidagi strukturaviy farqlar bilan bog'liq.

Turli haroratlarda Si₂, Si₄, Si₅, Si₈, Si₁₂ va Si₁₆ nanoklasterlarining entropiya qiymatlarining o'zgarishi sezilarsiz ekanligi aniqlandi, ya'ni bu nanoklasterlar barqaror holatdadir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, Ge klasterlarining entropiyasi va Gibbs energiyasi ham tavsiflangan. Aniqlanishicha Ge₂, Ge₃, Ge₄, Ge₅, Ge₆, Ge₇, Ge₈, Ge₉, Ge₁₀, Ge₁₂, Ge₁₃, Ge₁₄, Ge₁₅, Ge₁₆, Ge₂₄, Ge₃₃ nanoklasterlarining entropiya qiymatlari haroratga bog'liq ravishda bir xilda ortadi. Ge₁₁, Ge₃₅ va Ge₃₉ nanoklasterlarida esa entropiya qiymatlarining pasayishi kuzatildi. Yuqori



3-rasm. Monokristall plyonka hosil bo'lishida ishtirok etauvchi Si va Ge nanoklasterlari o'lchamlarining Sn eritmasidan kristallanishida haroratga bog'liqligi

haroratlarda barcha Ge nanoklasterlarining entropiyasi kamaydi. Ge nanoklasterlarining umumiy energiyasi nanoklasterdagi atomlar sonining ko'payishi bilan chiziqli ravishda kamaydi. Biroq, Ge_{40} dan boshlab, umumiy energiya musbat bo'ldi.


Si-Ge nanoklasterlarining umumiy energiyalarini hisoblashda Si_2Ge_3 va Si_3Ge_5 tarkibli nanoklasterlarning energiya qiymatlari boshqa tarkiblarga qaraganda bir oz yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, bunday nanoklasterlarning paydo bo'lish ehtimoli kamroq. $SiGe$, $SiGe_3$, Si_2Ge_4 , Si_3Ge_4 , Si_6Ge_3 , Si_6Ge_4 , Si_6Ge_6 , Si_6Ge_7 nanoklasterlarining umumiy energiya qiymatlari bir xil sonli Si atomlariga ega nanoklasterlarinikidan kamroq, ammo shunday atom sondagi Ge nanoklasterlarinikidan yuqori bo'lib chiqdi, bundan, Si-Ge va Ge nanoklasterlari eritma tizimida mavjud bo'lishi mumkinligi kelib chiqadi. Bundan tashqari, Si_5 , Ge_5 , Si_8 , Ge_8 va Si-Ge nanoklasterlari, Si-Ge-Sn eritmasidan Si taglikga $Si_{1-x}Ge_x$ epitaksial qatlamlarini o'stirishda ishtirok etishi mumkin.

Quantum-ATK dasturidan foydalanib, yuqori ehtimollik bilan Si kristall panjarasi tugunlarida Ge yakka atom bo'lib yoki Ge_2 juftligida yonma-yon (dimer) holatda bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Germaniy panjarasida Si, Si_5 va Si_{20} holatlarida mavjud bo'ladi. ATR-FTIR spektroskopik o'lchash tahlili yordamida eksperimental ravishda Si-Si, Ge-Ge, Si-Ge bog'larining $Si_{1-x}Ge_x$ qattiq qorishmada borligi tasdiqlandi.


Keyinchalik, nanoklasterlar $Si_{1-x}Ge_x$ hosil bo'lishida ishtiroki bo'lgani kabi $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ epitaksial qatlamlarning shakllanishida ham ishtirok etishi taxmin qilindi. Haqiqatan ham, tajribaga ko'ra, kristallanish jarayonida $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ epitaksial qatlamlari tarkibi asta-sekin o'zgargan.

Ushbu tizimdagi Si va GaP nanoklasterlarining holati turli energetik mumkin bo'lgan strukturalar uchun kvant kimyoviy hisob-kitoblar yordamida o'rganildi, hamda Si, GaP kristallari va $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ epitaksial qatlamlarining ATR-FTIR spektrlarini tahlil qilish yordamida tasdiqlandi.

Modellashtirishlar shuni ko'rsatdiki, GaP kristall strukturasi Si_2 dimerlarining mavjudligi katta ehtimollikka ega. Si kristall panjarasida esa galliy va fosfor atomlari alohida yoki GaP shaklida juft-juft joylashishi mumkin (5-rasm).



4-rasm. Atomlar soniga qarab Si va Ge nanoklasterlarining umumiy energiyalarining o'zgarishi: a) Si nanoklasterlari, b) Ge nanoklasterlari



5-rasm. Epitaksial qatlamlarning strukturaviy modellari $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$: a) $(\text{GaP})_{96-5}\text{Si}_2$ (GaP kristalli panjarasida); b) $(\text{Si})_{96-5}\text{Ga-5P}$ (Si kristall panjarasida).

Ceklangan hajmdagi eritmadan kristallanish jarayonida yuqori va pastki tagliklarda hosil bo'lgan epitaksial plyonkalarining qalinligi, tagliklar orasidagi masofaning ma'lum bir kritik qiymatidan ($d > 1.2$ mm) oshishi bilan yuqori taglikdagi epitaksial qatlamning qalinligi pastkidan oshib ketadi. Katta o'lchamli klasterlarning kristallanish jarayonida ishtirok etishi yuqori taglikdagi epitaksial qatlam sifatining buzilishiga olib kelishi aniqlandi (polikristal komponentlarining paydo bo'lishi, dislokatsiya zichligining oshishi).

Sof diffuziya jarayonlari yuqori va pastki tagliklarda turli qalinlikdagi qatlamlarning shakllanishini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun kuzatilgan effekt eritmaning nanoklaster tuzilishi nuqtai nazaridan tushuntirildi. Taxminiy hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, tagliklar orasidagi masofa 1.2 mm ga teng bo'lsa, o'lchamlari ≤ 15 nm bo'lgan barcha nanoklasterlar tartibsiz issiqlik harakati tufayli yuqori yoki pastki tagliklarga, bir xil ehtimollik bilan etib boradi, ya'ni bunda Si nanoklasterlari radiusi 15 nm dan oshmasligi kerak.


Ma'lum bir haroratda nanoklasterlarning o'lchamlarini aniqlash uchun $\text{Sn}_{86.5}\text{Ge}_{12}\text{Si}_{1.5}$ eritmasi tarkibi 900 °C va 1050 °C haroratlarda in-situ rentgen nurlari difraksiyasi usuli bilan yuqori haroratli difraktometr yordamida o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida struktura ko'rsatgichlari olindi, birinchi cho'qqini tahlil qilib, eritmalarning mikro bir jinsli bo'lmagan strukturasi doirasida nanoklasterlar o'lchamini aniqlash mumkin (6-rasm). Bizning holatda, birinchi cho'qqi rentgen nurlarining qalay asosli, ikkinchisi esa Ge va Si asosli mikrosohalar tomonidan, sochilishiga to'g'ri keladi. Nanoklaster radiusi quyidagi tenglamadan aniqlandi

$$R_c = \frac{2\pi^3 n^2}{2.5^2 \Delta s} \quad (14)$$

bu yerda n - struktura faktori maksimumining tartib raqami, Δs - maksimum balandligi yarmining kengligi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 900 °C haroratda qalay nanoklasterlarining o'lchami taxminan 1.28 nm, Ge yoki Si nanoklasterlarining o'lchami esa taxminan 0.630 nm ekanligi aniqlandi. 1050 °C haroratda bu parametrlar mos ravishda 1.23 nm va 0.821 nm ga teng bo'ldi.

Shunday qilib, in-situ rentgen nurlari difraksiyasi usuli bilan aniqlangan eritmadagi nanoklasterlarning o'lchami yuqorida nazariy hisoblangan 15 nm qiymatdan oshmaydi. Bu mazkur o'sish sharoitida tagliklar orasidagi masofa ≤ 1.2 mm bo'lganida, tartibsiz issiqlik harakati tufayli barcha nanoklasterlar yuqori yoki pastki tagliklarga teng ehtimollik bilan etib borishini tasdiqlaydi.




6-rasm. $\text{Sn}_{86,5}\text{Ge}_{12}\text{Si}_{1,5}$ eritmasining strukturaviy faktorlari

Eritmaning kristallanish jabhasiga tutash joylarida o'tish hududi hosil bo'ladi. U ma'lum bir haroratda eritmaning muvozanat tarkibiga nisbatan Si bilan to'yingan bo'ladi. Biroq, bu to'yinganlik kristallanish jabhasidan uzoqda joylashgan eritma sohalariga qaraganda kamroq bo'ladi. Sn-Si eritmasi holatida, Si ning kamligi tufayli o'tish hududining zichligi eritmaning asosiy hajmi zichligidan katta bo'ladi. Yuqori taglik yaqinidagi eritmaning zichligining katta bo'lishi (asosiy hajmning zichligiga nisbatan) Reyleigh-Teylor beqarorligiga xos bo'lgan jarayonlar namoyon bo'lishiga olib keladi: turli xil zichlikdagi suyuqliklarning vertikal "oqimlari" paydo bo'ladi. Bunda Si bilan boyitilgan eritmaning "oqimlari" yuqoriga ko'tariladi va yuqori taglikning ma'lum joylarida kristall qatlamning tez o'sishini ta'minlaydi, bu esa o'stirilgan qatlam yuzasida notekislik paydo bo'lishiga va nihoyat, o'stirilgan qatlamlar monokristalligining buzilishiga olib keladi. Si dan kambag'allashgan "oqimlar" pastga qarab harakatlanib, pastki taglik yaqinidagi o'tish hududi qalinligining oshishiga olib keladi va shu bilan undagi kristallanish jarayonlarini sekinlashtiradi. Yuqorida tavsiflangan eritmadan plyonkalarining hosil bo'lish mexanizmi tushunchasiga asoslanib, muhim amaliy xulosaga kelish mumkin: yuqori sifatli epitaksial plyonkalarni olish uchun tagliklarni joylashtirishda orasidagi masofani kritik kattalikdan oshirmaslik yoki eritmaning sovutish tezligini kamaytirish kerak.

Epitaksial $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ plyonkalari suyuq epitaksiya parametrlarining turli qiymatlarida 1323-723 K harorat oralig'ida o'stirildi. Boshlang'ich kristallanish harorati yuqori (T_{BH}) bo'lganda taglik-plyonka geterocheгарasida dislokatsiya zichligi oshdi, bu Si va Ge nanoklasterlarining o'lchamlari bilan bog'liq. Bu Ga va Sn eritmalaridan plyonkalarni o'stirishda kuzatildi (7-rasm).

Si- $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ -GaAs strukturalari Si, Ge, Ga va As larni o'z ichiga olgan qalayli eritmadan n-tipli Si(111) tagliklariga $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ qatlamlarini ketma-ket o'stirish orqali $T_{BH} = 1323$ K da olindi. $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ bufer qatlamining qalinligi 25÷45 mkm, GaAs qatlami esa 6÷12 mkm bo'ldi. Dislokatsiya zichligi: Si- $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ chegarasida: $\sim 5 \cdot 10^5 \text{ sm}^{-2}$, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ bufer qatlamida $\sim 4 \cdot 10^3 \text{ sm}^{-2}$, GaAs epitaksial qatlamida $\sim 4 \cdot 10^5 \text{ sm}^{-2}$ ni tashkil etdi. Plyonkalar tushayotgan yorug'lik kvantlari (1÷2 eV) energiya oralig'ida fotosezgirlikka ega bo'lib, tutashgan yarimo'tkazgichlarning xususiy yutilish hududlarini qamrab oldi.



7-рasm. Har hil boshlang‘ich (T_{BH}) va so‘nggi (T_{SH}) kristallanish haroratigatlarida qalay va galliy eritmasidan o‘stirilgan $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ qattiq qorishmasi epitaksial qatlamlari N_d dislokatsiya zichligining plyonkalarining d qalinligiga bog‘liqligi

Geteroo‘tishlarda dislokatsiya zichligini kamaytirish usullaridan biri o‘shish jarayonida plyonkani legirlash va dislokatsiya markazlarini kompensirlashdir. Shunga asoslanib, qattiq eritma strukturasi ega $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ plyonkalar $T_{BH} = 1023 \text{ K}$ da majburiy sovutish bilan Sn eritmasidan GaAs taglikkka o‘stirildi. Sb legirlovchi kiritma sifatida, man qilingan soha ichida chuqur sath hosil qilib, asosiy zaryad tashuvchilarni kompensatsiyalaydi. Natijada zaryad tashuvchilar (n_p) konsentratsiyasi $\sim 2 \cdot 10^{18} \div 10^{19} \text{ cm}^{-3} \text{ sm}^{-3}$ dan $\sim 3 \cdot 10^{16} \div 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ gacha kamaydi, (μ_p) harakatchanlik $30 \div 60 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ dan $70 \div 100 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ gacha oshdi.

O‘stirilgan $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ qattiq eritmalarining kristallografik xarakteristikalari yuqori aniqlikdagi rentgen nurlari difraksiyasi yordamida kuzatildi: epitaksial plyonkalar sfalerit tuzilishga ega bo‘lgan monokristallar bo‘lib chiqdi. Sb bilan legirlangan $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ epitaksial qatlamlarning dislokatsiya zichligi plyonka yuzasida $7 \cdot 10^3 \text{ sm}^{-2}$, taglik-plyonka geterochegarasida $2 \cdot 10^4 \text{ sm}^{-2}$ ni tashkil etdi.

Plyonkalarining sirt morfologiyasi CoreAFM asbobi yordamida o‘rganildi. Sirt notekisligi 1.28 nm (cho‘qqi balandligi) dan 1.9 nm (chuqurlik chuqurligi) gacha o‘zgargan; o‘rtacha kvadrat sirt notekisligi 1.755 nm dan oshmadi.

Geterochegaradagi nuqsonlar zichligini kamaytirish, shuningdek, plyonka o‘shishi jarayonida energiya sarfini kamaytirish uchun taglik materialini maqbullashtirish ion bombardimon qilish usuli modellashtirishidan foydalangan holda amalga oshirildi. Ge ning sirt potentsiali Si ning sirt potentsialidan yuqoriligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, o‘stirishning barcha sharoitlari bir xil bo‘lganda Si plyonkasiga nisbatan Ge plyonkasini olish osonroq kechadi.

Si va Ge dan farqli o‘laroq, bombardimon ionlarining nishon parametri, ya‘ni taglik sifatida ishlatiladigan GaAs va GaP sirtidan sochilish parametri $p(\text{Å})$ ushbu kimyoviy birikmalar Ga, As, P elementlarining sirt tekisligida joylashishiga bog‘liq:

epitaksial o'sish deyarli har doim As bilan to'ldirilgan tekisliklarda kuzatiladi, Ga bilan to'ldirilgan tekisliklarda, faqat kam to'yingan eritmadan o'sadi.

To'rtinchi bob **“Si_{1-x-y}Ge_xSn_y, Ge_{1-x}Sn_x, (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x, (Ge₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y, (Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y, (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x, (Si₂)_{1-x}(GaP)_x qattiq qorishmalar epitaksial plyonkalari va ular asosidagi geterostrukturalarning strukturaviy va fotoelektrik xossalari”** mavzusi ba'zi murakkab qattiq qorishmalar, strukturalar olish va ularning fizik xossalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Si_{1-x-y}Ge_xSn_y qattiq qorishmasi monokristall plyonkalari 1373-773 K harorat oralig'ida suyuq fazali epitaksiya bilan o'stirildi. O'sishning boshida taglikda hosil bo'lgan uchburchaklar epitaksial qatlamlarning Si (111) taglik yo'nalishida o'sa boshlaganini ko'rsatdi.

TEM yordamida epitaksial qatlamlarning bir xilligi va monokristalligi o'rganildi, SEM yordamida o'stirilgan epitaksial plyonkalar sirtining kimyoviy tarkibi aniqlandi: Si_{0.80}Ge_{0.19}Sn_{0.01}. Shundan keyin, plyonkalarining elektrofizik xossalari xona haroratida aniqlandi: solishtirma qarshilik $\rho = 0.5 \div 12 \text{ Om} \cdot \text{sm}$, Holl harakatchanligi $\mu_n = 600 \div 1100 \text{ sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$ va zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi $n = 2 \cdot 10^{16} \div 5 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$. Plyonkalar donor tip o'tkazuvchanligiga ega.

Ge_{1-x}Sn_x epitaksial qatlamlari 1 K/min sovutish tezligida, 893-723 K harorat oralig'ida, qalay eritmasidan o'stirildi. Tok tashuvchi konsentratsiyasi $n = (1 \div 5) \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ va $n = (4 \div 7) \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ bo'lgan donor o'tkazuvchanlik tipidagi Ge(111) va GaAs(100) tagiklar ishlatildi. Ge–Ge_{1-x}Sn_x va GaAs–Ge_{1-x}Sn_x epitaksial plyonkalari qalinligi bo'yicha qorishma komponentalarning taqsimlanishini sifatiy baholash, ularning deyarli bir xilligini ko'rsatdi.

$n\text{GaAs}-p\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$ geterostrukturalarining fotosezgirliги Ge_{1-x}Sn_x qattiq qorishmaning man qilingan va $n\text{GaAs}-p\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$ strukturaning $p-n$ o'tish sohalari bilan bog'liq bo'lib, yetarlicha keng spektr hududini qamrab oldi: 0.5 eV dan 1.9 eV gacha, ikkita maksimumga (0.65 eV va 1.43 eV) ega. Qisqa to'liqinli kvantlar plyonkaning yuqori qatlamlarida qisman yutiladi. Qattiq qorishmaning tashqi qatlamlaridan o'tib kirgan fotonlar $n\text{GaAs}-p\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$ strukturaning $p-n$ o'tish kontakt hududida yutiladi. Strukturaning fotosezgirlik sohasinig uzunroq to'liqin uzunligi hududiga siljishi (0.5 eV) Ge_{1-x}Sn_x plyonkaning tarkibida Sn borligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mukammal kristall (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlari 1023-803 K harorat oralig'ida majburiy sovutish bilan (1-1.5 K/min tezlikda) cheklangan qalayli eritmadan Ge va GaAs tagliklarga o'stirildi.

Panjaradagi komponentlarning o'zaro almashinishi uning sezilarli deformatsiyasiga olib kelmadi. Ya'ni, panjarada yaqin joylashgan Zn va Se atomlari germaniy atomlari bilan almashganda, kristall panjaraning elastik siqilishlarining energiyasi minimal bo'ldi, bu (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x uzluksiz tarkibli qattiq qorishmalarining shakllanishi imkoni amalga oshirildi.


Qalayli eritmadan epitaksial plyonkaning o'sishi jarayonida, Zn va Se atomlarini germaniy atomlari bilan almashinishi, panjaradagi alohida joylashgan atomlarni o'rnini olishi bilan emas, balki Zn va Se atomlari juftligini ikkita

germaniy atomi (Ge -Ge) o'rnini egallashi tufayli sodir bo'lishi, taglikka varizon qattiq qorishma olish sharoitini tug'diradi.

Dislokatsiya zichligini kamaytirish uchun turli xil T_{BH} qiymatlarida tajribalar o'tkazildi. Epitaksial plyonkalarda dislokatsiya zichligining eng kam qiymatlari ($N_D = 7 \cdot 10^3 \div 8 \cdot 10^4 \text{ sm}^{-2}$) $T_{BH} = 893 \text{ K}$ bo'lganda qayd etildi.

Juft ("molekulyar") almashinish yo'li bilan olingan $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ qattiq qorishma kristall panjarasida, Ga-As, Ga-Ge, Ga-Se, Zn-Se, Zn-As, Zn-Ge, Ge-Ge, Ge-As, Ge-Se kovalent bog'lanishlar mavjudligidan dalolat beradi. Bunday kovalent bog'lanishlarning uzilish energiyalari har xil bo'lgani uchun ular qattiq qotishmaning fotosezgirlik spektrida tegishli cho'qqilarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Aniq tarkibli $(\text{Ge}_2)_{0.02}(\text{ZnSe})_{0.03}(\text{GaAs})_{0.95}$ qattiq qorishmalar $T_{BH}=1023 \text{ K}$ da GaAs(100) tagliklarga o'stirildi. Ikki gorizontal joylashgan tagliklar bilan chegaralangan eritma tarkibi Sn, GaAs, Ge va ZnSe dan iborat. Epitaksial qatlamlarning qalinligi, tagliklarlar orasidagi masofaga va o'sish sharoitiga qarab, 4 dan 25 mkm gacha o'zgarib turadi.



8-rasm. $\text{GaAs}-(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ plyonka yuzasidan olingan difraktogramma qismi

Rentgen nurlari difraksiyasi ma'lumotlariga ko'ra, hosil bo'lgan $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial qatlamlari monokristallar bo'lib, sfalerit tipidagi strukturaga ega (8-rasm). Difraktogrammada bitta keng dublet (400) kuzatilib, bu faqat o'sgan fazaning monokristal panjarasidan qayd etilgandir.

Maksimumlarning kattaroq Bragg burchaklari sohasiga siljishi o'stirilgan qattiq qotishma panjara parametrining kamayishini ko'rsatdi ($a_{(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y} = 0.56516 \pm 0.00004 \text{ nm}$), chunki ZnSe ($a_{\text{ZnSe}} = 0.56687 \pm 0.00004 \text{ nm}$), Ge ($a_{\text{Ge}} = 0.56581 \pm 0.0004 \text{ nm}$) va GaAs ($a_{\text{GaAs}} = 0.56532 \pm 0.0004 \text{ nm}$) panjara doimiylari nisbatan kattaroq qiymatlarga ega. O'stirilgan faza panjara doimiysining bunday kamayishiga sabab, sirt (sirt tekisligida) paydo bo'ladigan, qatlam qalinligini kamaytirishga intiluvchi cho'zilish kuchlanishining yuzaga kelishidir. Difraksion maksimalning sezilarli darajada kengayishi bilvosita juda kuchli azimutal sirt kuchlanishlari mavjudligi haqidagi taxmini tasdiqlaydi.

$(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ epitaksial qatlamlari p tipdagi o'tkazuvchanlikka ega bo'lib, 300 K haroratda zaryad tashuvlarning konsentratsiyasi $\sim 5 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ va harakatchanligi $\sim 30 \text{ sm}^2 \cdot \text{V}^{-1} \cdot \text{s}^{-1}$ bo'lgan.

$n\text{GaAs}-p(\text{Ge}_2)_{0.02}(\text{GaAs})_{0.95}(\text{ZnSe})_{0.03}$ strukturasiining fotosezgirliги 0.7÷1.54 eV spektr diapazonida ekanligi xona haroratida fotodiod rejimida o'lchandi, bu Ge donor energiya sohasi va $(\text{Ge}_2)_{0.02}(\text{GaAs})_{0.95}(\text{ZnSe})_{0.03}$ n-p o'tish qatlamida elektron-


teshik juftlarining kaskadli fotogeneratsiyalanishini ko'rsatadi. Ge₂ va ZnSe ning GaAs ga birgalikda kiritilishi, uning man qilingan sohasini sezilarli o'zgartirmadi.

(Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y va (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlari mos ravishda $T_{BH} = 843$ K va $T_{BH} = 1023$ K da, 1 K/мин bir xil sovutish tezligida, o'stirildi, p va n tipdagi o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan GaAs (100) tagliklarga ($p = 5 \cdot 10^{18} \text{sm}^{-3}$, $n = 3 \cdot 10^{17} \text{sm}^{-3}$) o'stirildi.

Rentgen nurlari difraksiyasi pretsizion usuli bilan aniqlangan (Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y va (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlarning panjara parametrlari qiymatlari ($a_{(\text{Sn}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y} = 0.56521 \pm 0.00003$ nm, $a_{(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x} = 0.56512 \pm 0.00003$ nm) orasidagi farqlar, ularning kimyoviy tarkibining ozgina farqlanishi tufayli sezilarli emas, tarkib komponentlarining plyonkalar o'sish yo'nalishi bo'ylab kesimi va yuzasida taqsimlanishi deyarli bir xildir.

TEM yordamida (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlarning bir jinsliliigi va monokristalligi o'rganildi (9 a, b-rasm).

Sovutish tezligini kamaytirish bilan plyonkaning kristall mukammalligining yaxshilanishi ko'rsatildi. Bu, shubhasiz, qattiq eritmaning suyuq fazadan kristallanish jarayoni ko'proq muvozanatli sharoitida amalga oshirilganligi bilan bog'liq.



9-rasm. $T_{BH} = 1023$ K da 3 K/мин (a) va 1 K/мин (b) sovutish tezligi bilan o'stirilgan (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x namunalarning HR TEM tasvirlari

Komponentlarning o'zaro juftli almashinuvi kristall panjarani katta deformatsiya qilmaydi. GaAs dimerini ZnSe yoki Sn-Sn dimerlari bilan almashinuvi vaqtida, kristall panjara elastik deformatsiyasi energiyasi minimal bo'ladi, shuning uchun uzluksiz (Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y, (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x ko'rinishdagi qattiq qorishmalar shakllanadi.


(Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y va (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x plyonkalari p-tipidagi o'tkazuvchanlikka ega. Holl o'lchashlari yordamida 300 K haroratda ularning solishtirma qarshiligi, Holl harakatchanligi va zaryad tashuvchining konsentratsiyasi aniqlandi: $\rho = 0.05 \div 1$ Om·sm, $\mu_p = 20 \div 45$ sm²/V·s, $n_p = 10^{18} \div 2 \cdot 10^{19}$ sm⁻³ ((Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y); $\rho = 1.2 \div 12$ Om·sm, $\mu_p = 30 \div 60$ sm²/V·s, $n_p = 10^{17} \div 2 \cdot 10^{18}$ sm⁻³ ((GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x).

GaAs-(Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y, GaAs-(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x geterostrukturalarning tushayotgan kvantlar energiyasiga fotosezgirliги fotodiod rejimida ko‘rildi. Yoritish plyonkalar tarafidan qilindi. nGaAs-p(Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y, nGaAs-p(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x geterostrukturalarning spektral fotosezgirliги 300 K haroratda spektral sohaning mos ravishda 1.12 eV dan 1.82 eV gacha (kuzatilgan maksimum 1.41 eV) va 1.24 eV dan 2.14 eV gacha (kuzatilgan maksimum 1.55 eV) oralig‘iga mos keldi (10-rasm).

nGaAs-p(Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y geterostrukturalarda spektrning 1.46 eV dan katta qisqa to‘lqin sohasidagi foton energiyalariga nisbatan fotosezgirlikning keskin pasayishi kuzatildi, bu plyonkalar yuzasiga nisbatan p-n o‘tish sohasi to‘siq chuqurligi va epitaksial qatlamlar ichkarisidagi zaryad tashuvchilarning harakatchanliги bilan bog‘liq. (Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y qattiq qorishmada zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining oshishi, zaryad tashuvchilar harakatchanligini pasaytirishi ehtimoliy holatdir va plyonka yuzasida hosil bo‘lgan tashuvchilarning aksariyati ajratuvchi to‘siqning chuqurligiga yetib bormay, rekombinatsiyaga uchraydi.

GaP epitaksial plyonkalari Si tagliklariga Sn eritmadan Si dan GaP gacha tekis va monoton o‘zgarib boruvchi tarkib bilan o‘stirildi. Qattiq qorishmaning kristallanish jarayoni muvozanatga yaqin sharoitda bordi. Kristallanish fronti bo‘ylab erigan GaP va Si dimerlarining migratsiya vaqti ularning kristall holatga o‘tish vaqtidan ancha yuqori bo‘lganliги uchun, sirt ustida ko‘chib yuruvchi dimerlar ("molekulalar") kristall panjaraning elastik siqilishlarining energiyasi minimal bo‘lgan joylarda to‘planadi. Bu jarayon mukammal kristall tuzilishga ega epitaksial plyonkaning o‘shishiga yordam beradi. Si-GaP qattiq qorishmalarini hosil qilish uchun juftlik (dimer yoki "molekulyar") almashinish sharoitlari zarur, ya'ni GaP dimerlari Si-Si tipidagi dimerlar bilan almashinishi kerak. O‘stirilgan (Si₂)_{1-x}(GaP)_x epitaksial plyonkalar n-tipli o‘tkazuvchanlikka ega va ularning qalinliги ~ 25 mkm tashkil etadi.

Olingan epitaksial qatlamlar monokristal bo‘lib, sfalerit strukturaga ega. Plyonkaning panjara parametrlari ikki fazaning panjaralari dubletlarning birlashuvidan iborat maksimum (222) og‘irlik markazlarining joylashuvi bilan aniqlandi: Si (taglik) va (Si₂)_{1-x}(GaP)_x (plyonka) larni ajratish uchun matematik ishlovdan keyin. Dubletning kuchsiz intensivliги tufayli o‘lchov aniqligi cheklandi. Panjara parametrlari mos ravishda $a_{Si}=0.5431$ nm va $a_{(Si_2)1-x(GaP)_x}=0.5438$ nm ga teng.



10-rasm. nGaAs-p(Sn₂)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y va nGaAs-p(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x strukturalarning 300 K da spektral fotosezgirliги

O'stirilgan faza panjara parametrining kamayishi sirt tekisligida elastik siqilish kuchlanishining yuzaga kelishi bog'liq bo'lishi mumkin.

$(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ qattiq qorishmalar epitaksial qatlamlarini elektron o'tkazuvchanlik tipidagi GaAs (100) tagliklarga ($\text{AGCHO } n=3 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$) o'stirishda, tagliklar eritmaga botirilishidan oldin, tizim suyuqlik haroratida 3 soat davomida ushlab turildi. Bunda, eritmadan Zn ning intensiv bug'lanishi va uning taglikka diffuziyalanishi tufayli $n\text{GaAs}-p\text{GaAs}$ gomoo'tish hosil bo'ladi, bu $n\text{GaAs}-p\text{GaAs}-p(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $n\text{GaAs}-p\text{GaAs}-p(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ strukturalarni yagona texnologik siklda olish imkonini berdi.

Selening Se-Ge, Se-Ga o'zaro ta'siri tufayli $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ va $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ qattiq qorishmalarning kristall panjarasidagi selen bog'lanish kuchlari ZnSe kristall panjarasidagiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Bu odatda ZnSe da elektron o'tkazuvchanlik ko'rinishini keltirib chiqaradigan V_{Se} bo'sh o'rinlar sonining sezilarli darajada kamayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, qattiq qorishmalardagi selen quyi panjarasi V_{Se} bo'sh o'rinlarining bir qismini Ge yoki Ga atomlari egallashi mumkinligi, V_{Se} bo'sh o'rinlarini kamayishiga yordam beradi.

Foto-EYK ning spektral bog'liqligini o'lchash shuni ko'rsatdiki, keng sohali "deraza" dan yoritilganda ikkala strukturaning fotosezgirliги tushayotgan kvantlarning juda tor energiya diapazonini qamrab oladi, ularning maksimumi 1.45 eV ga to'g'ri keladi. Bu, ehtimol, mazkur strukturalarda tok tashuvchilarining ajralishi asosan GaAs gomo- p - n -o'tishlarda sodir bo'lishi bilan bog'liq. Yoritilganlikning turli darajalarida (100÷4000 lyuks) $n\text{GaAs}-p\text{GaAs}-p(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ strukturalarning salt yuklanish xarakteristikalari o'rganildi. Tashuvchilarni yig'ish samaradorligi kristallanish sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, eritmani dastlabki qayta sovishi $\Delta T = 10 \text{ K}$ bo'lganda va tizim 1.5 soat davomida ushlab turilganda bunga erishildi. $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ ($x = 0.95$; $y = 0.03$) va $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ ($x=0.03$) plyonkalar esa p tipidagi o'tkazuvchanlikka ega bo'ldi.

Foto-EYK qiymatlarining o'sishi yoki kamayishini $n\text{GaAs}-p(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $n\text{GaAs}-p(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$ geteroo'tishlarda yorug'lik impulslarini "dereaza" tomonidan tushurib taqiq qilish, har ikkala tuzilma uchun asosiy bo'lmagan tashuvchilarning yashash vaqti olingan qatlamlarning kristall mukammalligiga bog'liqligini ko'rsatdi.

“Yagona texnologik siklda o'stirilgan ko'p qatlamli geterostrukturalarning tuzilishi” deb nomlangan beshinchi bob ko'p qatlamli yarimo'tkazgichli strukturalarni yagona texnologik siklda ishlab olish va ularning fizik xossalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Bunday strukturalarni olishda termodinamik eritma tizimi uchun muvozanatga yaqin sharoitlarni yaratish muhimdir.

IV bobda berilgan sharoitlarda o'stirilgan $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$ epitaksial qatlamlar tarkibida kimyoviy elementlarning taqsimotini sirt va ko'ndalang yuza bo'yicha o'rganganda ularning qalinlik bo'yicha bir xilligini ko'rsatdi. Plyonka sirtning kimyoviy tarkibi $\text{Si}_{0.04}\text{Ge}_{0.93}\text{Sn}_{0.03}$ bo'lib, qatlamlarda makroskopik nuqsonlar va boshqa fazalarning mavjudligi aniqlanmadi.

Kimyoviy ishlov berish usuli yordamida taglik-plyonka chegarasida ($N_D \sim 10^5 \text{ sm}^{-2}$) va plyonka yuzasida ($N_D \sim 9 \cdot 10^3 \text{ sm}^{-2}$) dislokatsiya zichligi aniqlandi. Uning

ba'zi elektrofizik xossalardan parametrlarining Si, Ge va $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ monokristallarga yaqinligi ko'rinadi.


$p\text{Si}-n\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x-n\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$ strukturalarning fotosezgirliги xona haroratida fotodiod rejimida o'Ichandi (11-rasm). Plyonka qalinligi 12-15 mikronni tashkil etdi.

11-rasmdan ko'rinib turibdiki, $p\text{Si}-n\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x-n\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$ strukturalar etarlicha keng spektr oralig'ida 0.5 eV dan 1.5 eV gacha fotosezuvchandir. Fotosezgirlikning maksimumi spektrning 0.95÷1.2 eV oralig'ida kuzatildi. Si, Ge, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ monokristallari va ularga asoslangan strukturalar bilan solishtirganda fotosezgirlik spektr diapazonining to'liq uzunligi kattaroq sohaga (0.5 eV) siljishi, ehtimol, tarkibda Sn ning mavjudligi bilan bog'liq. Qisqa to'liqni sohadadagi fotosezgirlikning kamayishini qattiq qorishmada ushbu diapazondagi spektr kvantlarining zaif yutilishi bilan tushuntirish mumkin. Qisqa to'liqni kvantlar qisman plyonkaning yuqori qatlamlarida yutiladi. Qattiq qorishma spektrining tor yutilish sohasiga to'g'ri keluvchi, tashqi qatlamlardan o'tib kirib boruvchi fotonlar kremniy taglik tomonidan yutiladi. Shuning uchun fotosezgirlik spektrining maksimumi aynan kremniyning yutilish spektri hududida kremniyning yutish hududida kuzatilgan.

Si - $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ - $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ - $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ - $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ geterostruktura namunalari bitta texnologik siklda Si(111) tagliklarga 1223...973 K harorat oralig'ida suyultma eritmadan o'stirildi. To'yingan Si-Ge-Al-Ga-As-Sn eritmadan dastlab qalinligi 12-14 mkm bo'lgan $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ qatlami o'sadi. Keyin eritma ma'lum haroratda Al, Ga va As komponentlari bilan to'yingandan so'ng, $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ epitaxial qatlamining o'sishi boshlanadi.

$(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ qatlamining o'sishi jarayonida eritmadagi Ge va Si konsentratsiyasi asta-sekin oshib boradi, buning natijasida $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ bufer qatlami navbatdagi qatlamda yana o'sadi. Eritma tarkibi Si va Ge ga nisbatan kambag'allashgandan keyin $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ epitaxial qatlam ilgari hosil bo'lgan katlamning kristallografik yo'nalishida o'sishda davom etadi (12-rasm).


Tabiiy ravishda sodir boradigan ushbu jarayonlarning ketma-ket almashinuvi tufayli to'rt qavatli Si-Si $_{1-x}$ Ge $_x$ -(Si $_{1-x}$ Ge $_x$) $_{1-z}$ (Al $_{1-y}$ Ga $_y$ As) $_z$ -Si $_{1-x}$ Ge $_x$ -(Si $_{1-x}$ Ge $_x$) $_{1-z}$ (Al $_{1-y}$ Ga $_y$ As) $_z$ geterostrukturani olish mumkin.



11-rasm. 300 K haroratda fotodiod rejimida $p\text{Si}-n\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x-n\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$ strukturaning fotosezgirliги

$\text{Si-Si}_{1-x}\text{Ge}_x-(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z-\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x-(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$
geterostrukturalarini elektrofizikaviy va fotoelektrik tadqiq qilish ularning amaliy tadbiriq istiqboli borligini ko'rsatdi. Plyonkalarining solishtirma qarshiligi $\rho = 0.5 \div 12$ Om·sm bo'lib, n-tip o'tkazuvchanlikka ega. Holl o'lchashlari yordamida plyonkaning zaryad tashuvchilari harakatchanligi (μ) va konsentratsiyasi (n) aniqlandi: $\mu_n = 500 \div 1100$ $\text{sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$, $n = 5 \cdot 10^{17} \div 2 \cdot 10^{18}$ sm^{-3} , (300 K haroratda).

Fotodiod rejimida tushayotgan yorug'lik kvantlari energiyasiga pSi- $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ -n($\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$) $_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ -n($\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$) $_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ geterostrukturaning fotosezgirliги o'rganildi. Fotosezgirliги 0.72 eV dan 1.9 eV gacha bo'lgan keng spektr diapazonida bo'lishi aniqlandi. Spektarning qisqa to'liqinli sohasidagi fotosezgirlikning pasayishi ($\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$) $_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ -qattiq qorishmasi tomonidan zaif yutilishi bilan izohlash mumkin, buning natijasida qisqa to'liqin uzunlikdagi kvantlar qisman qotishmaning yuqori qatlamlarida, ulgurmaganlari esa plyonka ichiga kirib, man qilingan sohasi tor bo'lgan $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ qatlamlarida yutiladi.



12-rasm. $\text{Si-Si}_{1-x}\text{Ge}_x-(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z-\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x-(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ strukturaning qalinliги bo'yicha komponentlarning taqsimlanishi

XULOSA

1. Ko'p elektronli atomlarning potentsiali modelidan foydalanib, davriy sistemaning III-VI guruhlar elementlaridan tashkil topgan $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{GaAs})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Sn}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ qattiq qorishmalarning hosil bo'lish imkoniyati, bashorat qilindi.

2. Si, Ge, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ epitaksial qatlamlarini monokristall taglikka o'sishi uchun energetik qulay sharoitlarini aniqlash maqsadida tizimning Gibbs energiyasi hamda Si va Ge nanoklasterlarining o'lchamlari nazariy jihatdan hisoblab chiqildi va epitaksial plyonkada, taglik-plyonkada chegarasida dislokatsiya hosil bo'lish mexanizmlari taklif qilindi.

3. Si-Sn, Ge-Sn sistemalarining to'yingan holati uchun komponentlarning konsentratsiyalari va aktivliklari aniqlandi, komponentlarni turli haroratlarda aralashishning Gibbs energiyalari hisoblab chiqildi va yuqori haroratlarda o'stirilgan

kristallar dislokatsiyasi zichligiga ta'sir etuvchi sabablaridan biri nanoklasterlarning o'lchami ekanligi aniqlandi.

4. Birinchi marta Si-Ge-Sn tizimlarining real eritmaları uchun termodinamik hisoblashlar asosida cheklangan qalayli eritmadan suyuq epitaksiya bilan $Si_{1-x}Ge_x$ qattiq qorishmalarining epitaksial qatlamlarini o'stirishning maqbul va arzon texnologik sharoiti aniqlandi.

5. Kompyuter modellashtirishdan foydalanib, monokristal tagliklarda Si va Ge epitaksial qatlamlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi, energiya jihatidan eng ehtimoliy barqaror Si_n , Ge_m , Si_nGe_m nanoklasterlar, Ge va GaP kristall panjara tugunlarida Si_n ning, Si kristall panjara tugunlarida esa Ge_m ning eng ehtimoliy joylashuvi aniqlandi.

6. Qattiq qorishma panjarasidagi atomlarning SiGaP klasterlari va boshqa turli strukturaviy konfiguratsiyalari panjaraning to'liq energetik holatini kvant kimyoviy hisob-kitoblari yordamida modellashtirildi va GaP panjarasida Si_2 kabi konfiguratsiyalar mavjudligi boshqa konfiguratsiyalar (Si_n)ga nisbatan ehtimoli yuqoriroq ekanligi aniqlandi va eksperimental topilgan ATR-FTIR spektrlaridagi maxsus yutilishlar $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ epitaksial qatlamlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

7. Cheklangan hajmli eritmadan epitaksial qatlamlarning o'sish mexanizmi taklif qilindi va Reyleigh-Taylor beqarorligi hodisasiga asoslanib, suyuq fazali epitaksiyada yuqori tagliklarda qalinroq plyonkalar o'sishining sababi tushuntirildi.

8. Si- $Si_{1-x}Ge_x$, Si- $Si_{1-x}Ge_x$ -GaAs, strukturalarida taglik-plyonka geterochegarasidagi dislokatsiyalar shakllanishi jarayoniga kristallanishning boshlang'ich haroratining ta'siri aniqlandi va plyonkadagi dislokatsiya zichligining qalinlikga bog'liqligi eksponensial xarakterda ekanligi ko'rsatildi.

9. Ion bombardimon modellashtirish usulidan foydalanib, suyuq fazadan qattiq qorishmalarni Si, Ge, GaAs va GaP tagliklarga o'stirishda nishon masofasi parametrlari aniqlanib, ularning sirt potentsiallari baholandi hamda sinov texnologik tajribalarini o'tkazmay nazariy jihatdan mukammal kristall epitaksial qatlamlarni olish imkoniyati bashorat qilindi.

10. Si (111) tagliklarga o'stirilgan $Si_{1-x-y}Ge_xSn_y$ qattiq qorishmalari tarkibida qalayning mavjudligi fotonlarning plyonka yuzasiga tushganda zaryad tashuvchilarning spektrning uzunroq to'lqin uzunligi hududiga paydo bo'lishini ta'minlaydi va olingan yarimo'tkazgichlarning fotosezgirlik sohasining Si va Ge lar bilan solishtirganda sezilarli darajada kengaytiradi.

11. Birinchi marta binar (dimer) turdagi almashinuvga ega, $Ge_{1-x}Sn_x$ va $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$, teshikli o'tkazuvchanlikka ega qattiq qorishmalar GaAs(100) tagliklariga o'stirildi, teshiklar konsentratsiyasi $10^{17} \div 10^{18} \text{ sm}^{-3}$, zaryad tashuvchilar harakatchanligi $15 \div 20 \text{ V} \cdot \text{s}/\text{sm}^2$ va spektral diapazonda kuzatilgan fotosezgirlik $0.7 \div 1.54 \text{ eV}$ bo'lib, bu Ge-donor energetik sohasi va soha ichidagi kaskad elektron-teshik juftlarining fotogeneratsiyasining $(Ge_2)_{0.02}(ZnSe)_{0.03}(GaAs)_{0.95}$ ning *n-p* o'tish qatlamida paydo bo'lishini ko'rsatadi.

12. Cheklangan hajmli qalay eritmasidan GaAs(100) taglikka o'stirilgan yangi $(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$, $(Sn_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$ va $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ qattiq qorishmalarda, qatlam qalinligini kamaytirishga moyil bo'lgan sirt tekisligida cho'zilish kuchlanishlarining paydo bo'lishi, ularning Ge, GaAs va ZnSe ga nisbatan

panjara parametrlarining kamayishiga olib keladi, bu ba'zi hollarda zaryad tashuvchilar harakatchanligini pasaytiradi natijada plyonka yuzasida hosil bo'lgan ko'pchilik zaryad tashuvchilar ajratuvchi potensial to'siqning chuqurligiga etib kelmasdan, rekombinatsiyalanadi.

13. Yagona texnologik siklda birinchi marta qalay eritmasidan qalinlik bo'yicha kimyoviy tarkibi tekis o'zgaruvchi $\text{Si-Si}_{1-x}\text{Ge}_x\text{-Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $\text{Si-Si}_{1-x}\text{Ge}_x - (\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z - \text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x - (\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ ko'p qatlamli strukturalar olindi, bu ularning fotosezgirlik spektr sohasining sezilarli darajada kengayishiga olib keladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc02/27.02.2020.FM/Т.110.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФИЗИКО-
ТЕХНИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ АН РУз

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ФИЗИКО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

РАЗЗОКОВ АЛИЖОН ШОНАЗАРОВИЧ

ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ТВЕРДЫХ
РАСТВОРОВ $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ ИЗ
РАСТВОРА-РАСПЛАВА И ИХ СТРУКТУРНЫЕ СВОЙСТВА

01.04.10 – Физика полупроводников

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА НАУК (DSc)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2023.2.DSc/FM221.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете и Физико-техническом институте АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.fti.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	Саидов Амин Сафарбаевич доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Оксенгендлер Борис Леонидович доктор физико-математических наук, профессор Нуритдинов Иззатилло доктор физико-математических наук, профессор Каражанов Смагул Жангаберганович доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Защита диссертации состоится «24» января 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc02/27.02.2020.FM/T.110.01 по присуждению ученых степеней при Научно-исследовательском Физико-технического института Академии наук Республики Узбекистан (Адрес: 100084, Узбекистан, г. Ташкент, ул. Чингиз Айтматов, дом 2Б. Тел: (+99871) 235-93-61, факс (+99871) 235-42-91, e-mail: ftikans@uzsci.net).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Физико-технического института (зарегистрирована за № _____) по адресу: 100084, Узбекистан, г. Ташкент, ул. Чингиз Айтматов, дом 2Б. Тел: (+99871) 235-30-41

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 г. (реестер протокола рассылки № _____ от «__» _____ 2024 г.).

Х.К.Олимов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., профессор

Ж.С.Ахатов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., с.н.с.

Ш.Н.Усманов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., с.н.с.

Введение (аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире проявляется особый интерес к теоретическим и экспериментальным исследованиям в области физики полупроводников и технологий получения новых высококачественных тонкопленочных полупроводниковых материалов, востребованность к которым вызвана бурным развитием микро- и нанотехнологий в полупроводниковом приборостроении. Поэтому, кроме широко используемых элементарных (Si, Ge) и бинарных (GaAs, GaSb, CdTe, ZnSe, ZnS и т.п.) полупроводниковых материалов, все большее применение находят материалы на основе сложных твердых растворов с регулируемыми химическими составами и с наперед заданными электрическими и фотоэлектрическими свойствами, что говорит об актуальности проблемы.

В мировой научной литературе большое внимание уделяется технологиям выращивания кристаллически совершенных полупроводниковых материалов с устойчивыми физическими характеристиками и изучению физических процессов, происходящих при этом. Особого внимания заслуживает разработка экономически выгодных технологий получения тонких высококачественных пленок с комплексом необходимых специфических востребованных характеристик. Такие требования могут быть обеспечены с помощью выращивания полупроводниковых твердых растворов определенного состава на сравнительно дешевых кремниевых подложках. При этом необходимость и теоретического, и технологического решения проблемы рассогласования параметров решеток подложек и выращиваемых эпитаксиальных пленок твердых растворов с учетом разности их коэффициентов термического расширения является актуальной. Одним из методов решения проблемы является использование промежуточного, так называемого буферного слоя с переменным химическим составом вдоль направления роста, позволяющего осуществлять плавный структурный переход между подложкой и пленкой и минимизировать возникающие упругие напряжения в эпитаксиальном слое, что в конечном итоге приводит к уменьшению количества структурных дефектов в получаемых твердых растворах.

В Республике в области современной физики полупроводников определение оптимальных термодинамических и технологических условий режима роста и исследований структуры полученных эпитаксиальных слоев является неотъемлемой задачей. Управляя химическим составом твердого раствора можно регулировать ширину запрещенной зоны, которая является основным фактором при изготовлении фоточувствительных приборов, охватывающих широкий диапазон электромагнитных волн. Поэтому на сегодня получение многослойных твердых растворов для изготовления фотопреобразователей с улучшенными физическими параметрами и относительно высоким коэффициентом полезного действия являются одним из приоритетных направлений физики полупроводников.

В настоящей работе применена и усовершенствована технология и физические принципы получения многослойных структур на базе новых ($\text{Si} - \text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x - \text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $\text{Si} - \text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x - (\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z - \text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x - (\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$) и ранее известных материалов, выращенных в едином технологическом цикле, что упрощает процесс изготовления каскадных структур и является экономически более выгодным, чем применение общеизвестных многоступенчатых методов получения подобных структур. В Узбекистане особое внимание уделяется разработкам в области фотоэнергетики и оптоэлектронного приборостроения. Поэтому востребованность в пленках на основе твердых растворов со специфическими фотоэлектрическими и электрофизическими характеристиками очевидна. К настоящему времени уже получены из жидкой фазы монокристаллические эпитаксиальные пленки $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ на Si , $(\text{Ge}_2)_{1-x}(\text{GaAs})_x$, на (Ge, GaAs) -подложках. Однако, хотя в республике и достигнуты в этом направлении значительные результаты, еще существует ряд нерешенных задач, в частности практически не решена проблема выращивания прямозонных эпитаксиальных слоев на Si -подложках с формированием переходного буферного слоя.

Представленное диссертационное исследование способствует, в определенной мере, выполнению задач, изложенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 13 февраля 2017 года ПП-2772 «О мерах по дальнейшему совершенствованию управления, ускоренному развитию и диверсификации электротехнической промышленности на 2017-2021 гг.»⁵, ПП-2789 от 17 февраля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности»⁶, ПП-3855 от 14 июля 2018 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности коммерциализации результатов научной и научно-технической деятельности»⁷ и ПП-5032 от 19 марта 2021 года «О мерах по повышению качества образования и совершенствованию научных исследований в области физики»⁸ а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Выполнение диссертационной работы осуществлялась в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: III. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение, транспорт, машино- и приборостроение».

⁵ ПП-2772 «О мерах по дальнейшему совершенствованию управления, ускоренному развитию и диверсификации электротехнической промышленности на 2017-2021 гг. (13.02.2017).

⁶ ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» (17.02.2018).

⁷ ПП-3855 «О дополнительных мерах по повышению эффективности коммерциализации результатов научной и научно-технической деятельности» (14.07.2018).

⁸ ПП-5032 «О мерах по повышению качества образования и совершенствованию научных исследований в области физики» (19.03.2021).

Обзор международных научных исследований по теме диссертации.

Научные исследования по выращиванию полупроводниковых твердых растворов и структур на их основе проводятся на факультете физики университета Павиа (Италия); проф. Д. Тимо с сотрудниками методом металлоорганической парофазной эпитаксии (MOVPE) выращивает и исследует пленки SiGeSn, которые применяются для производства недорогих, высокоэффективных фотоэлектрических устройств. В Христианском университете Чунг Юань (Тайвань) на кафедре электронной инженерии (проф. Цзи-Вэй Ци) методом жидкостной эпитаксии с использованием раствора Ge-Sn были получены Si_{1-x}Ge_x-эпитаксиальные слои на подложках Si(111); для уменьшения несоответствий между параметрами решеток подложки и пленки при этом использовали высокое (x=0.9) содержание германия в растворе-расплаве В Центре оптоэлектронных материалов и устройств Института науки и технологий (Южная Корея) на подложке Si выращивались эпитаксиальные слои InAlAs с буферным слоем GaAs; плотность пронизывающих дислокаций (TDD) составляла $\sim 7 \cdot 10^6$ см⁻². В Марбургском университете (Германия) MOVPE-методом на Si-подложке были получены GaP нанопроволоки длиной до 10 мкм, имеющие однако значительное количество микродвойников. В департаменте физических исследований университета Соноры (Мексика) используя жидкофазную эпитаксию (механизм роста Странского-Крастанова) выращены структуры Al_{0,32}Ga_{0,68}As/Al_{0,29}Ga_{0,71}As/GaAs в виде островков прямоугольной формы размером 2,059 мкм; такая структура дала возможность минимизировать несоответствие параметров решеток подложки и пленки В институте Фраунгофера (Германия) методом газофазной эпитаксии из металлоорганических соединений выращены p-AlGaAs образцы с различной геометрией и составом (концентрация алюминия изменялась от 0,08 до 0,23 ат%), изучен эффективный коэффициент излучательной рекомбинации связанный со временем жизни неосновных носителей заряда.

В настоящее время во многих научных центрах продолжается выращивание кристаллически совершенных сложных твердых растворов на основе соединений типа A^{III}B^V, A^{II}B^{VI} на подложках кремния и исследование их свойств. Получение таких структур, обладающих специфическими электрофизическими и фотоэлектрическими свойствами структур является актуальной задачей в области изготовления оптоэлектронных приборов.

Степень изученности проблемы. Анализ многочисленных исследований по выращиванию и изучению свойств эпитаксиальных слоев полупроводниковых пленок с различными кристаллическими структурами показал, что довольно подробно рассмотрены процессы получения пленок на основе твердых растворов Si_{1-x}Ge_x, Si_{1-x}Sn_x, Ge_{1-x}Sn_x, (GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x (Арканзасский университет (США), университет штата Аризона (США), физико-технический институт, НПО «Физика-Солнце» (Узбекистан)). Исследованы зависимости степени совершенства пленочных монокристаллов от количества дислокаций (Лёвенский университет (Бельгия) и Христианский университет (Чунг Юань, Китай), Сидьянский университет (Сиань, Китай)), а также влияния плотности дислокаций на

электрофизические свойства пленок (университет Макгилла (Монреаль, Канада)). Довольно много работ посвящено влиянию кристаллографических ориентаций монокристаллов подложек на особенности роста пленок (университет Кюсю (Японии), исследовательский институт электроники университета Сидзуока (Японии)). Необходимо отметить особый вклад профессора А.С.Саидова (Физико-технический институт АН РУЗ) в изучении процессов получения новых сложных твердых растворов с молекулярными (бинарными) типами замещения атомов в кристаллической решетке.

Однако в научной литературе до сих пор практически не освещены вопросы, связанные с термодинамическим описанием процессов выращивания пленок из растворов-расплавов, нет точных критериев выбора как типа раствора-расплава, так и его химического состава. Выращивание эпитаксиальных пленок с градиентным химическим составом вдоль направления роста и неизменным типом кристаллической решетки также исследовано недостаточно. Кроме того тонкие эпитаксиальные пленки твердых растворов $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Sn}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$ до настоящего времени так и не получены. Поэтому рассматриваемые в данной работе проблемы являются актуальными.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ научно-исследовательского учреждения, где выполнена диссертация. Выполнение диссертационной работы осуществлялась в рамках планов научных проектов по фундаментальным исследованиям Физико-технического института по темам: № ФА-Ф2-003 АН РУЗ: «Фото-, теплоэлектрические и излучательные эффекты в новых многокомпонентных твердых растворах с нанокристаллами на основе молекул элементарных полупроводников и полупроводниковых соединений».

Целью исследования является теоретическое и экспериментальное обоснование существования монокристаллических твердых растворов замещения $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$, выяснение физико-химических особенностей механизмов роста эпитаксиальных пленок, исследование их структуры и фотоэлектрических свойств.

Задачи исследования:

- с помощью модели многоэлектронного потенциала атомов спрогнозировать возможность образования твердых растворов замещения $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x)_{1-z}(\text{Al}_{1-y}\text{Ga}_y\text{As})_z$, $(\text{Sn}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$;
- определить термодинамические условия роста кристаллически совершенных эпитаксиальных слоев Si, Ge, $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $\text{Ge}_{1-x}\text{Sn}_x$ из оловянного раствора-расплава путем теоретических расчетов энергии Гиббса системы;
- теоретически и экспериментально определить размеры нанокластеров в растворе-расплаве и их влияние на образование дислокаций в эпитаксиальных слоях в зависимости от температуры начала кристаллизации;

- выполнить квантово-химические расчеты и определить роль молекулярных кластеров Si_n , Ge_n , Si_nGe_m , Ga_nP_n в процессе роста твердых растворов $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$, а также их влияние на кристаллическую структуру твердых растворов;
- проанализировать механизмы роста эпитаксиальных пленок Si и варизонных $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$ структур из ограниченного оловянного раствора-расплава при горизонтальном расположении кремниевых подложек в зависимости от расстояния между ними;
- экспериментально определить технологические режимы роста выращивания кристаллически совершенных эпитаксиальных слоев $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Sn}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{ZnSe})_x$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$ из ограниченного оловянного раствора-расплава на подложках Si и GaAs;
- методом моделирования с использованием ионной бомбардировки определить значения прицельных параметров и оценить поверхностные потенциалы Si, Ge, GaAs, GaP подложек и теоретически спрогнозировать возможность получения на них кристаллически совершенных эпитаксиальных слоев.

Объект исследования – процессы формирования Si, Ge и твердых растворов $\text{Si}_{1-x-y}\text{Ge}_x\text{Sn}_y$, $(\text{Ge}_2)_{1-x-y}(\text{GaAs})_x(\text{ZnSe})_y$, $(\text{Si}_2)_{1-x}(\text{GaP})_x$ из ограниченных оловянных растворов-расплавов, изменения кристаллических структур пленок в зависимости от их химического состава.

Предмет исследования – физические закономерности влияния термодинамических факторов на кристаллическое совершенство эпитаксиальных слоев и гетероструктур, физико-химические особенности растворов-расплавов Sn-Si, Sn-Ge, Sn-Si-Ge при различных температурах, особенности кинетики роста эпитаксиальных пленок из ограниченного объема раствора-расплава.

